

**ЛУЧШИЕ
ИНТЕЛЕКТУАЛЬНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



международном научно-образовательном
электронном журнале

**ЧАСТЬ-13
ТОМ-2
01/2024**



ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

международный научный электронный журнал

ЧАСТЬ-13 ТОМ-2

Январь - 2024 год





O`SIMLIKLARNI VEGETATIV KO`PAYTIRISH

Inomjonov Olloyorxon Faxriddin o`g`li
Prezident Ta`lim Muassasalari Agentligi qoshidagi
Abu Ali Ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan
Maktabning 7A sinf o`quvchisi

Annotatsiya: Barcha tirik organizmlarning muhim xususiyatlaridan biri bu ko`payishdir. O`simliklar ikki yo`l bilan ko`payadi: vegetativ va generativ. Bu bizning ilmiy ishimizdagi o`simliklarning vegetativ ko`rinishi xaqida qisqacha ma`lumot beradi.

Kalit so`zlar: vegetativ, ildiz, piyozbosh, bachki, payvand, payvandtag, payvandust, ildizpoya, tugunak, qalamcha.


Barcha tirik organizmlarda ko`payish xususiyati mavjud bo`lib, o`simliklar ham o`ziga xos xolda ko`payadi. O`simliklarning ko`payishi ikki xil yo`l bilan, jinssiz va jinsiy usullarda ko`payadi. Jinssiz ko`payish usulidan biri vegetativ ko`payishdir. Vegetativ ko`payish- vegetativ organlar yoki ularning bir qismidan yangi organism paydo bo`lishiga aytildi. O`simlikllarning ildiz, ildizpoya, tugunak, piyozbosh , novda va bargidan ko`payishi vegetativ ko`payishiga kiradi. Bu ko`payish turi tuban va yuksak o`simliklar uchun xosdir. Vegetativ ko`payish (lot. vegetativus-o`sish) o`simllarning yo`qolgan qismini yoki organini tiklashga, ya`ni regeneratsiya hodisasiga, shuningdek, ayrim tana qismlaridan bir butun o`simlik paydo qila olish xususiyatiga asoslangan.

Vegetativ ko`payish usuli tabiatda yashovchi o`simliklar urug` yordamida ko`payish o`rniga ko`pincha vegetativ usulda bilan ko`payadi.

Tabiiy sharoitda o`simliklarda keng tarqalgan quyidagi vegetativ ko`payish usullarini farq qilish mumkin:

1. Ildizpoyalar yordamida ko`payish.

Ko`p yillik o`t o`simliklarning ildizpoya orqali tez ko`payishi ma`lum. Masalan yovvoyi o`simliklardan ajriq, g`umay, qirqbo`g`im, qamish, salomalaykum, bambuk, shirinmiya kabi o`simliklar shular jumlasidandir.





2. Tugunaklar yordamida ko`payish .

Bunday ko`payishni madaniy ekinlardan kartoshka, topinambur, kartoshkagul kabi o`simliklarda uchratamiz. Tabiiy sharoitda esa siklomen, burmaqora, salomaleykum va boshqalar shu yo`l bilan ko`payadilar. Salomaleykumning bir tupi yuzgacha tugunak hosil qiladi.

3. Piyozboshi yordamida ko`payish

Asosan cho`l, chalacho`l, shuningdek, tog` o`simliklari orasida ko`proq uchraydi. Ko`p yillik piyozboshli o`simliklar (lola, chuchmoma) mayday yosh piyozchalarni hosil qilib, katta maydonlarni qamrab oladi. Madaniy o`simliklardan piyoz, lola, sarimsoq, nargis, giatsent, ilongul kabi o`simliklar piyozchalari bilan ko`payatiriladi.



Tabiatda ham lolalar, boychechak, za`faron, chuchmomalarni uchratamiz. Ayrim o`simliklar barg qo`ltig`ida yoki to`pgullarida piyozchalar hosil qiladi. Shu piyozchalar to`kilsa, undan yangi o`simliklar hosil bo`ladi. Bunday ko`payishni sarimsoqda ko`rish mumkin.

4. Ildiz bachkilari yordamida ko`payish.

Ildiz bachkilari ildizda endogen yo`li bilan qo`srimcha kurtakning rivojlanishidan hosil bo`ladi. O`simliklar ildiz bachkilari yordamida tez ko`payib, katta-katta maydonlarni egallaydi. Har qaysi novda o`zining qo`srimcha ildizlariga ega, shuning uchun ular alohida ekilsa ham nobud bo`lmaydi. Bunday o`simliklarga daraxtlar, butalar va ba`zi o`simliklar: olcha, gilos, terak, akatsiya, do`lana, zirk, maymunjon, pechak, kakra, qizilmiya, bo`ztikan va boshqalar misol bo`ladi.

Sun`iy vegetativ ko`payishning ham bir necha usullari ma`lum:

1. Parxish qilib ko`paytirish.

O`simlik novda va shohlari yoysimon shaklda yerga egiladi hamda novdasining uchi yerdan chiqib turadigan qilib ko`miladi. Ma`lum vaqtidan so`ng novdaning ko`milgan qismidan qo`srimcha ildizlar paydo bo`ladi, shundan keyin parxeshni ona



osimlikdan ajratib, boshqa joyga ko`chirish mumkin. Parxish qilinadigan novdanong tilinishi tez ildiz otishiga yordam beradi. Parxish asosan erta bahor yoki kuzda qilinadi. Tut, anor, tot, tok, qoraqat, anjir va ba`zi bir chinniguldoshlar, dratsenalar parxish qilib ko`paytiriladi.

2. Qalamchalar yordamida ko`paytirish

Ona o`simgikdan qirqib olingan, vegetativ ko`payish uchun xizmat qiluvchi o`simlikning bir qismiga qalamcha deyiladi. Ildiz, poya va barg qalamchalari ajratiladi. Qalamchalar ko`pincha o`simlikning novdalaridan tayyorlanadi. Tok, terak, tol va anorlar novda qalamchasi; olcha, atirgul, siren ildizlari bilan; begoniyaning ayrim turlari, binafsha va gloksiniyalar esa bargi orqali ko`payadi. Qalamchalar uzunligi o`simlik turiga qarab turlicha (8-25-45 sm) bo`ladi.


3. Payvandlash.

Payvandlash (transplantatsiya) deganda, bir o`simlikning ma`lum qismini ikkinchi o`simlikka turli usullar bilan o`rnatish bilan qo`shilib o`sib ketishiga aytildi. Payvandlash usuli kishilik jamiyatni rivoji va dexqonchilik tarixi bilan bog`liq. Antik davr tabiatshunoslari Aristotel, Teofrast, Platon, Pliniy va ularning shogirdlari payvandlashning turli ususlarini yozib qoldirgan. Payvandlashning juda ko`p usullari bor (kurtak, iskana va naycha).

O`tqaziladigan o`simlik (kurtak yoki qalamcha) payvandust, payvandlanadigan o`simlik payvandtag deb ataladi. Payvandlash usuli bilan asosan qo`shimcha ildiz chiqarishi qiyin bo`lgan mevali daraxt, rezavor va manzarali o`simliklar ko`paytiriladi.

Payvandlashning eng ko`p tarqalgan turi kurtak payvanddir.

Kurtak payvand uchun dastlab payvandtag po`stlog`i o`tkir pichoq bilan □T□ harfi shaklida kesiladi. Kesilgan joy po`stlog`i asta □sekin keriladi. Ulanadigan kurtak biroz po`stloq va yog`ochligi bilan kesib olinadi va payvandtagdagi ochilgan po`stloq orasiga joylanadi, so`ngra yuqorida pastga qarab chipta bilan o`rab bog`lanadi. Payvand qilibgan kurtakning tutgan-tutmaganligini 6-10 kunda bilinadi. Kurtagidan payvandlash, asosan, avgust oyida o`tkaziladi.





Iskana payvand asosan erta bahorda daraxtlarda shira harakati boshlanishidan oldin (fevral oyining oxiridan aprel oyigacha) qilinadi. Payvand uchun maqsadga muvofiq nav (payvandust)dan yillik novdalar shira harakati boshlanmasidan oldin kesib olinib, maxsus salqin joylarda saqlanadi. Payvand qilish muddati

kelishi bilan qalamchalar kattaroq yoshdagagi daraxtlarning shoxlariga yoki tanasi (yoshroq tuplar)ga o`rnatiladi. Payvand uchun olingan novdalar 2-3 tadan kurtak qoldirilib kesiladi va pastki qismi ponaga o`xshatilib kesiladi. Payvandtag tekis arralanib, pona orqali 2 yoki 4 ga ajraladi. Tayyor qalamchalar payvandtagdagi yoriqlarga po`stlog`I po`stlog`iga tegadigan qilib mahkam o`rnatiladi. Shundan so`ng ponalar olib tashlanadi va qalamcha o`rnatilgan joyga maxsus mumsimon modda suriladi yoki mustahkam chiptalar bilan bog`lab qo`yiladi.

XULOSA

Shunday qilib, tez va yuqori hosil olish, yaxshi, sifatli navlarni saqlab qolish hamda ko`paytirish maqsadida madaniy o`simliklar vegetativ yo`l bilan ko`paytiriladi. O`simliklar jamoasining o`zgarishlari orasida o`zgaradigan o`simliklar turlari soni, o`simliklarning tabiiy turli va g`ishtlari, o`simliklarning tartiblanishi va taqsimlanishi kabi asosiy o`zgarishlar kiritiladi. Bu o`zgarishlar, o`simliklarning iste'mol qilingan taksonomik tizimlari va ob'ektlari bo'yicha ham o`zgarishlar oqibatida sodir bo'lishi mumkin. Barcha bu o`zgarishlar va ulardagi munosabatlar o`simliklar fanining o`zining o`ziga xos sohasidir va bu sohada so`nggi yillarda ham ilmiy tadqiqot va kengaytirilgan hisoblanmoqda. O`simliklar jamoasining kengayishini va o`zgarishlarini tushunish uchun o`simliklar fanining ilmiy tadqiqotlariga qiziqish bildirishingiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Alekseenko V. A. Bir qator ekologik muammolarni hal qilish uchun geobotanik tadqiqotlar foydali qazilmalar konlarining vazifalari va qidiruvlari: darslik / Davlat Naumova, L. G. fitotsenologiyaga kirish: darslik / L. G. Naumova. Ufa: M. Akmulla nomidagi BGPU, 2017. — 125 p. - matn: elektron // Lan: elektron-kutubxonasi tizimi.
2. <https://e.lanbook.com/book/99951>



3. Fitotsenologiya asoslari: darslik / tuzuvchi A. P. Polyushkin. Irkutsk: Irkutsk GAU, 2010 yil. — 166 p. - matn: elektron // Lan: elektron- kutubxona tizimi.
4. <https://e.lanbook.com/book/143207>
5. O‘.Pratov, L.Shamsuvaliyeva, E.Sulaymonov, X.Axunov, k.Ibodov, V.Mahmudov. Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika). Ta’lim nashriyoti Toshkent-2010.
6. S. M. Mustafayev Botanika (anatomiya, morfologiya, sistematika). Toshkent ”O‘zbekiston” 2002.
7. B.S.Islomov, M.A.Hasanov Botanika (darslik). Samarqand 2020.
8. O‘. Pratov, A.S. To‘xtayev, F.O‘. Azimova. Botanika Toshkent - 2005.
9. I.Xamdamov., I.Shukrullayev., Y. Tarasova. va boshqalar. Botanika asoslari.T., "Mehnat", 1990-yil.
10. Lavrenova G. V., Lavrenov V. K. Dorivor o‘simliklar entsiklopediyasi. 2-jild. - Donetsk: Donechchina, 1997. 422.
11. Tursunboeva Gulbahor Sultanovna, Komilova Shoira Rafiqovna. Botanika asoslari (o‘quv qo‘llanma). Toshkent 2009.



**AYOLLARDA SIYDIK TUTOLMASLIK SABABLARI, MEXANIZMI VA
SAMARALI DAVOLASH USULLARINI QO'LLASH ORQALI FARG'ONA
VILOYATI XUDUDIDAGI STATISTIK MA'LUMOTLARNI
TAHLIL QILISH**

¹Otaqulov G'ayrat Olimjonovich.,

²Davronov Bahodir Abduraimovich., ³J.S.Mirzaqulov

1. *Central Asian Medical University tibbiyot universiteti*
2. *urologiya fani assistenti*
3. *Central Asian Medical University tibbiyot universiteti*
4. *DI 2-bosqich 1522-guruh talabasi*
5. *Central Asian Medical University tibbiyot universiteti assistenti*

Ayollarda siydiq yo'li teshigining ektoziyasi, erkaklarga qaraganda 2-4 marta ko'p bo'lib kuzatiladi. Ayollarda siydiq tuta olmaslik, siydiq yo'li teshigining bitta ektoziyasi qinda va vulvasida joylashishi sabab bo'lishi mumkin. Odatdagi siyish saqlanib, har doim siydiqning ixtiyorsiz chiqishi, bunday tabiiy ko'rinishdan o'zgacha bo'lishining o'ziga xos belgisi bo'ladi: odatda joylashgan siydiq yo'lidan, siydiq qovuqda yig'ilib, vaqtı-vaqtı bilan chiqariladi. Siydiq yo'li teshigining ektoziyasi bo'lgan buyrak ko'pincha gidronefrotik transformatsiya va infeksiyaga uchragan bo'ladi. Siydiq yo'li teshigining ektoziya tashxisini, o'ziga xos bo'lgan siydiq tutaolmaslik, xromotsistoskopiya vaqtida, qovuqda faqat bitta siydiq yo'li teshigini aniqlanishi va siydiq yo'li teshigining ektoziyasining topilishiga asoslanib ko'yiladi. Oxirisini topish uchun venaga indigokarmin yuborib, undan so'ng siydiq chiqarish kanalinishi, qinni va to'g'ri ichakni diqqat bilan ko'rib, rangining chiqishini aniqlash kerak. Siydiq yo'li teshigining ektoziyasi, yuqori siydiq yo'llarini qo'shaloq extimolligini aniqlashga ekskretor urografiya imkon beradi. Bunday tabiiy ko'rinishdan o'zgachalik faqat operatsiya yo'li bilan davolanadi. Buyrakning ish faoliyati yaxshi saqlanganda ureterotsistoanastomoz, siydiq yo'li qo'shaloq bo'lganda – ureteroureteroanastomoz, pielonefrit yoki gidronefrozda buyrakning funktsiyasi bo'lmasa nefroureterektomiya qilinadi.

Qiz bolalarda gipospadiya juda ham kam uchraydi, unda uretraning tashqi teshigi qinga ko'chganligi ma'lum bo'ladi. Bu paytda qizlik pardasining yuqori gumbazi yorilgan bo'ladi. Siydiq qinga tushib, shilimshiq pardasi qizarib yumshab ketadi, ya'ni vulvovaginit bo'lib, siydiq infeksiyasi yuqoriga ko'tarilishi mumkin. Agar uretra butun bo'ylab yetilmagan bo'lsa, total gipospadiya paydo bo'lib, qovuq



bo'yni bilan qin orasida bir-birini qo'shadigan yoriq hosil bo'ladi. Ba'zi «ayollar gipospadiyasida», doimo siydikni tutaolmasligi kuzatiladi. Davosi qinning devoridan uretra qilishdan iborat bo'ladi. Siyidik tutaolmaslik kasalligida Qovuq sfinkterining plastinkasi bajariladi. Epispadiya – siydik chiqarish kanalining dorsal (oldingi) devorining bir qismini yoki hammasini tug'ma yorilishidir. U 50 000 tug'ilgan go'daklarda bitta, og'il bolalarda qizlarlarga nisbatan 5 marta ko'proq uchraydi. Epispadiyaning uch xili uchraydi: o'g'il bolalarda – bosh qismidagi epispadiya, olatning epispadiyasi hamma qismida bo'lgan epispadiya qizlarda – klitorli, subsimfizli hamma qismida bo'lgan yoki retrosimfizli epispadiya. Hamma qismida bo'lgan (total) epispadiya boshqa shakllariga qaraganda uch marta ko'proq uchraydi. Bolalarni yoshligidan to'g'ri tarbiyalash, ularning jismoniy to'g'ri rivojlanishi, enurezning oldini olishlikni garovidir. Tungi siydik tutmaslik oldini olishda tarbiya muxim ahamiyatga egadir. Bunda ko'rpagina siyib qo'yishdan o'zini tutish shartli reflektor xususiyati va faqat tashqariga siyish odati tarbiyalanishi lozim. Ota-onalarni ogoxlantirish kerakki, bolalarni kechasi uyqusida noto'g'ri tusishlik ularda noto'g'ri tuyg'u hosil qiladi. Ya'ni teskari natijaga uyquda, bilmagan xolda siyish odatini rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Qovuq va qin oqmalarida esa ayollarda siydik tuta olmaslik doimiy xarakterga ega bo'ladi. Agar oqma juda katta bo'lsa, siydik chiqarish jarayoni umuman ko'zatilmaydi. Oqma juda tor bo'lgan paytlarda, siydik doimiy oqib tursa ham qovuqda siydik oz-ko'p miqdorda bo'limgan bari- bir tabiiy siydik chiqarish jarayoni saqlangan bo'ladi. Bir tomonlama siydik naychasi bilan qin orasidagi oqma bo'lsa, siydik chiqarish jarayoni saqlangan bo'lismiga qaramay doimiy ravishda siydik tuta olmaslik bo'lib turishi mumkin. Ikki tomonlama siydik naychasi bilan qin orasidagi oqma bo'lganda, qin orqali siydik doimiy ajralib turishi natijasida qovuqda siydik bo'lmaydi. Siydik naychasi va qin orasidagi oqmalarida yuqori siydik yo'llarida siydikni yo'nalishini buzilishi yuz beradi, buyraklarda esa har xil og'riqlar, o'tkir pielonefrit xuruji paydo bo'ladi.

Barcha turdag'i siydik yo'llarini siydik tanosil oqmalari uchun umumiy belgi va jinsiy a'zolarining terisini shalvirab ketishi xarakterlidir. Kasallikni tashxisini aniqlash kasallikni tarixini to'liq yig'ishga har xil asboblar yordamida tekshirishlarga va endoskopik, rentgenologik tekshiruvlarga asoslanadi. Bemorning shikoyatlari va kasallikni tarixi (jaroxat, operatsiya) ga qarab, kasallikni tashxisi, hamda oqmaning turini aniqlash mumkin. Maxsus asboblar yordamida qin tekshirilganda oqmani teshigini, uning joylanishini, kattaligini va shaklini aniqlash mumkin. Agar bu tekshiruvlar bemorga qattiq ogriq bersa, u holda qisqa vaqtli narkoz qo'llash ham



mumkin. Qurish bilan bir qatorda oqmani yo'lini uni yo'nalishini tekshirib bilishi kerak. Bunday tekshirish ayniqsa uretravaginal oqmalarda yaxshi natija beradi (siyidik yo'liga kirgizilgan zond, oqmada paydo bo'ladi.)

Сийдик тутаолмаслик – сийишга қисташ бўлмасдан сийдикнинг ихтиёrsиз чиқиши (оқиши). Сийдикнинг чиқиб кетиши уретрадан ёки ундан ташқарида келиб чиқиши мумкин. Уретрадан сийдик тутаолмасликнинг қуидаги турлари фарқ қилинади: – стрессли – кучангандан сийдик тутаолмаслик; – ургентли(императив) – сийиш актининг яққол, тўхтатиб бўлмайдиган қистashi оқибатида бўлиши; – сийдикнинг сурункали тутилиши натижасида қовуқ тўлиб кетганда, сийишга қисташ бўлмаса ҳам сийдикни тутаолмаслик. Стрессли сийдик тутаолмасликда қовуқ сфинктерларининг етишмовчилиги оқибатида bemor сийдикни тутаолмайди, лекин сийдик йўлларининг анатомик бутунлиги бузилмаган бўлади. Ҳақиқий сийдик тутаолмаслик доимий ёки гавданинг фақат маълум бир ҳолатида (масалан, тик турган ҳолатга ўтганда), қўпроқ жисмоний зўриққанда ёки йўталганда, акса урганда, кулганда содир бўлади. Аёлларда одатда бу ҳолат чаноқ туби мушакларининг тонуси пасайганда, қовуқ сфинктерлари бўшашганда кузатилади, уларга қин олди девори ва бачадон тушиши ҳам сабаб бўлиши мумкин. Аёлларда климактерия даврида стрессли сийдик тутаолмаслик баъзи ҳолларда детрузор фаолиятининг бузилиши ва гормонал дисфункциялар оқибатида сфинктерлар ишлаш кординациясининг бузилиши ҳам сабаб бўлади.

Сийдикни уретрадан ташқарида (“сохта”) тутаолмасликда сийдик найи, қовуқ ёки сийдик чиқариш каналининг туғма ёки орттирилган нуқсонлари сабабли сийдик ихтиёrsиз ташқарига чиқади. Қовуқ экстрофияси, эписпадия, уретроректал оқмаларда сийдик найи оғизчасининг уретрада ёки қинда жойлашиши туғма нуқсонларга киради. Бундай сабаблар қўпроқ болалар учун хосдир. Сийдикни уретрадан ташқарида тутаолмасликка олиб келувчи орттирилган нуқсонлар ҳамма вақт 22 шикастланиш билан боғлиқ бўлади. Бунда сийдик йўлларининг бутунлиги бузилади ва қўшни аъзоларга, қўпинча қинга, камроқ тўғри ичакка (сийдик найи– қин, қовуқ–қин, қовуқ–тўғри ичак, уретра–тўғри ичак оқмалари) очиладиган оқмалар пайдо бўлади.

Ургентли (императив) сийдик тутаолмаслик – тўхтатиб бўлмайдиган, императив қисташ вақтида қовуқда сийдикни тутиб туришга лаёқатсизлик. Қисқа вақт оралиғида тез–тез сийиш, сийишга тўхтатиб бўлмайдиган (буйруқ билан) қисташ бўлиши, бирдан пайдо бўлган қисташ сабабли қисталанган



сийдик тутаолмаслик, қўпинча тунги поллакиурия ургентли сийдик тута олмасликнинг белгилари ҳисобланади. Бу ўткир циститда, қовуқ бўйинчаси ўсма билан заарланганда, баъзан простата безининг хавфсиз гиперплазияси (аденомаси)да кузатилиши мумкин. Боғча ва мактабгача ёшдаги болаларда сийдикни тутаолмаслик узоқ муддатли қизиқарли ўйинларда қовуқнинг тўлиб кетиши оқибатида келиб чиқади. Энурез – тунда уйқуда сийдикни тутаолмаслик. Бола ҳаётининг биринчи 2–3 ёши давомида физиологик бўлиши мумкин. Агар энурез давом этаверса, бу уретровезикал сегментнинг нейромушак тузилмаси ривожланишининг секинлашиши ёки органик касалликлар (пастки сийдик йўллари инфекцияси, ўғил болаларда уретра орқа қисмининг қопқоқлари, қиз болаларда уретранинг дистал торайишида, нейроген қовуқда) оқибатида бўлиши мумкин. Бир қанча урологик касалликлар қийналиб сийиш билан кузатилади. Бунда сийдик оқими суст, ингичка, тик пастга қараб ёки фақат томчилаб, оқимсиз чиқади. Уретранинг торайишида сийдик оқими иккига бўлиниб, унинг гирдобраниб ва сачраб чиқиши кузатилади. Простата безининг хавфсиз гиперплазияси (аденома) ва ракида сийдик оқими ингичка, суст бўлиб, одатдаги ёй ҳосил қилмай пастга йўналади, сийиш муддати чўзилади. 2

Сийдик тутаолмасликка уретра ичи максимал босимининг меъёрдагига нисбатан паст бўлиши ва уретра ички босими профилининг қисқариши сабаб бўлади. Қовуқ бўйинчасидан проксималроқ очиладиган эктопиялаган сийдик найи, одатда сийдикни тута олмасликни келтириб чиқармайди. Лекин баъзи bemорларда, қовуқнинг нейромушаги ривожланмаганлиги сабабли сийдик тута олмаслик бўлиши мумкин. Битта сийдик найининг (қўшалоқ бўлмаган) эктопияси кам учрайди. Сийдик найи оғизаси эктопияланган буйрак гидронефротик трансформацияга ва инфекцияланишга дучор бўлади. Эктопияланган сийдик найи қовуқ бўйинчаси сфинктери соҳасида жойлашганда bemорда сийдик тута олмаслик бўлмайди; у фақат вақти–вақти билан жисмоний кучангандага ва bemор тик турганда кузатилади. Сийдик найи оғизасининг эктопияси уретранинг орқа қисмида, тўғри ичақда, уруғ пуфакчалари ва уруғ чиқувчи йўлда бўлганда ҳам бундай симптом кўзга ташланмайди. Бундай аномалияни фақат операция қилиб даволанади. Буйракнинг функцияси яхши сақланганда уретероцистоанастомоз рефлюксга қарши усули бўйича, сийдик найи қўшалоқ бўлганда – уретероуретероанастомоз, узоқ давом этган пиелонефритда ёки гидронефрозда – нефроуретерэктомия қилинади.



Аёлларда сийдик тутаолмаслик

Сийдик тутаолмаслик (Incontinencia) деганда сийдикни ирода кучи билан назорат қилиб бўлмайдиган ихтиёrsиз ажралиши тушинилади. Яқин вақтгача бу касаллик кўп сабабли омилларга эга бўлган симптомдай баҳоланган. Лекин сийдик тута олмасликнинг кенг тарқалганлиги мутахассисларни бунга симптом сифатида эмас, балки урологик гурухга мансуб касаллик сифатида қарашга ва таснифлашга мажбур қилди. Сийдик тутаолмаслик нафақат тиббий, балки ижтимоий – иқтисодий муаммо ҳисобланади. Сийдик тутаолмаслик гарчи ҳаёт учун хавфли касаллик бўлмасада, у жиддий психоэмоционал бузилишлар билан кузатилади ва ижтимоий дезадаптацияга (ёқимсиз ҳид, қистирма, памперслар қўйиб юриш зарурлиги, баъзан ҳатто қисқа муддатга уйдан чиқиш мумкин эмаслиги), кўпинча эса инвалид бўлиб қолишга олиб келади. Ҳисобларга кўра жаҳонда сийдик тутаолмаслик билан 200 млн.дан ортиқ киши азобланади. Фақат АҚШда сийдик тутаолмаслик кекса кишиларнинг асосий муаммоларидан бири бўлиб, 10 млн.дан кўпроқ беморларда сурункали ҳолат сифатида кузатилади. Бу касаллик билан кўпроқ 40 ёшдан ошган аёллар азобланади, уларнинг 30 % да сийдик тутаолмаслик доимий бўлиб, яна 20 % да вақти – вақти билан учрайди. Этиологияси. Сийдик тута олмасликнинг сабаблари, одатда, қўп омилли характерга эга. Пастки сийдик йўллари дисфункцияси, шу жумладан сийдик тутаолмаслик, кўпинча, ўзининг орқасидан чаноқ аъзолари функцияси бузилишига олиб келувчи, марказий ва/ёки периферик нерв тизими томондан назоратнинг ўзгариши натижасида пайдо бўлади. Сийдик тутаолмаслик қўпинча нейроген бузилишлар, жумладан паришонхотирлик склерози, цереброваскуляр бузилиш, орқа миянинг шикастланиши, қандли диабет ва Паркинсон касаллиги, орқа миянинг тугма ривожланиш нуқсонлари (мальформация) бўлган bemорларда кузатилади. Кли макс даврида гормонал дисбаланс, унинг фонида сийдик – таносил тизими аъзоларида дегидратация ва шиллик қаватнинг атрофияси содир бўлади.

Қовуқ, уретра деворида, чаноқ туби мушакларида ва бойлам 726 аппаратида тўқиманинг “қариши” сабаб бўладиган микроструктурали ўзгаришлар сийдик тутаолмаслик ривожланишинг хавфли омилларига киради. Лекин аёлларда, чаноқ аъзолари (биринчи навбатда қовуқ ва уретра) нинг ўзаро муносабатларини анатомик ўзгаришга ёки уларнинг сезувчанлиги бузилишига олиб келувчи орттирилган ҳолат сийдик тутаолмасликнинг энг кўп сабаби бўлади. Буларга: асоратланган ва/ёки кўп туғишнинг оқибати, кичик чаноқ



аъзоларидаги операциялар, нур билан даволаш ёки ятроген шикастлар, оғир меҳнат қилиш, чаноқ аъзоларининг чиқишига олиб келувчи спорт билан шуғулланиш ҳамда сурункали юқумли яллигланиш касаллиги, семириш ва бошқалар киради. Патогенези. Пастки сийдик йўлларига қовуқ, уретра, мушак аппарати ҳамда бу аъзоларнинг суюнч ва ушлаб туришини таъминловчи бойламлар, фасциялар киради. Қовуқ ва уретра ягона функционал тизимдан иборатдир. Сийдик тўпланиши ва ажралиш механизми парасимпатик, симпатик, соматик ва сенсор иннервациянинг ўзаро таъсирида марказий нерв тизими орқали назорат қилинади.

Рефлекслар узатилишининг ҳар қандай даражада бузилиши сийиш дисфункциясига, шу жумладан сийдик тутаолмасликка олиб келиши мумкин. Қовуқ резервуар (тўплаш) ва эвакуатор (бўшатиш) функцияни бажаради. Патологик вазиятларда детрузор ҳолати гиперфаол ёки гипофаол бўлиши мумкин. Гиперфаоллик тўплаш фазасида, гипофаоллик эса бўшатиш фазасида намоён бўлади. Меъёрда қовуқ тўлганда детрузор стабил туради ва аҳамиятли қисқаришларни амалга оширмайди. Агар тўлиш фазасида беихтиёр қисқариш содир бўлса, унда бундай детрузор ностабил ёки гиперфаол ҳисобланади. Агар гиперфаолликка неврологик касаллик сабаб бўлса, унда детрузорнинг гиперрефлексияси рўй беради. Детрузорнинг қисқарувчанлик қобилияти пасайганда ва унинг бўшалиши бузилганда детрузор гипофаол ҳисобланади. Уродинамика нуқтаи назаридан ҳар қандай типдаги сийдик тутаолмаслик қовуқ ички босими уретра ички босимидан юқори бўлганда қузатилади. Лекин бундай гидродинамик бузилишларнинг ривожланиш механизми ургентли (императив) ва стрессли сийдик тутаолмагандаги ҳар хил.

Ургентли сийдик тутаолмаслик сабаби детрузорнинг гиперфаоллиги ёки гиперрефлексияси бўлиши мумкин. Бир оз камроқ бўлсада бундай кўринишдаги сийдик тутаолмаслик уретранинг спонтан бўшашишида, яъни унинг “ностабиллигига” учраб туради. Афферент фаолликнинг кучайиши, марказий нерв тизими ва периферик ганглиялар ингибирлаш назоратининг сусайиши, эфферент стимуляцияга детрузор сезувчанликнинг ошиши (марказий ингибирловчи йўлларнинг шикастланиши, детрузор хусусиятлари, тузилиши ва иннервациясидаги ўзгариш) гиперфаолликка сабаб бўлиши мумкин. Стрессли сийдик тутаолмаслик механизми. Унинг сабаблари кучанганда уретра ва қовуқ бўйинчасининг ҳаддан ташқари ҳаракатчанлиги ёки силжиши (кўпинча қиннинг олдинги девори пастга тушган, чаноқ аъзолари чиқкан, цистоцеле бўлган аёлларда) ва /ёки сфинктер механизмининг



етишмовчилиги бўлади. У қорин ички ва бинобарин қовуқ ички босими бирдан кўтарилиганда етарлича қаршиликни таъминлай олмайди. Сфинктернинг етишмовчилиги кўпинча кичик чаноқ аъзоларидағи операцияларда қовуқ бўйинча соҳасининг механик шикастланишлари оқибатида, чаноқ чигалига тегиб кетувчи нур билан даволаш натижасида ҳамда қон билан таъминланиш ва нейрогуморал регуляциянинг ёшга қараб ўзгариши сабабли пайдо бўлади. Таснифи. Сийдикни функционал тутаолмасликнинг асосий типлари қўйидагилар: 1. Ургентли (императив). 2. Стрессли. 3. Аралаш. 4. Қовуқ тўлиб кетиши сабабли сийдик тутаолмаслик 5. Транзитор Ургентли (императив) сийдик тутаолмаслик – тўхтатиб бўлмайдиган қисташ натижасида сийдикнинг ихтиёrsиз ажралиши. Стрессли сийдик тутаолмаслик (кучангандан сийдик тутаолмаслик) – жисмоний иш қилганда, йўталганда, кулганда, акса урганда, яъни қорин ички босими кўтарилиганда ихтиёrsиз сийдик ажралиши. Аралаш сийдик тутаолмаслик ургентли ва стрессли компонентлар бирга қўшилганда аниқланади. Қовуқ тўлиб кетганда сийдикни тутаолмаслик детрузор қисқарувчанлик фаолиятининг пасайиши, қовуқнинг ҳаддан ташқари чўзилиши ва бунинг фонида пайдо бўладиган сфинктерлар етишмовчилиги оқибатида рўй беради. Транзитор сийдик тутаолмаслик вақтинчалик характерга эга бўлиб ташқи омиллар: инфекция, заҳарланиш, баъзи бир дори воситаларини (диуретиклар, антигистамин, психотроп препаратлар, кальций антогонистлари) қабул қилганда, ичакни бўшатиш бузилганда пайдо бўлади. Сийдик тута олмасликнинг биринчи учта типи аёлларда жуда кўп учрайди. Мазкур бобда уларга асосий эътибор қаратилган. Симптомлари ва клиник кечиши. Ургентли сийдик тутаолмаслик сийишга кучли (императивли) қисташ билан, қистагандан сийдикни тутаолмаслик билан, кундузги ва тунги поллакурия билан намоён бўлади. Стрессли сийдик тутаолмасликда кучли қисташлар бўлмайди, сийдикнинг оқиб кетиши эса йўталганда, акса урганда, юргурганда, тез юрганда, яъни қорин ички босимининг бирдан кўтарилиши билан кузатиладиган ҳар қандай жисмоний ишда пайдо бўлади. Аралаш тури ҳам ургентли, ҳам стрессли сийдик тутаолмасликнинг симптомлари борлиги билан характерланади.

Ташхислаш.

Сийдик тутаолмаслик билан беморни текширгандан шифокорнинг асосий вазифаси унинг сабабларини аниқлашдан иборат бўлади. Биринчи навбатда сийдик йўлларининг етишмовчилиги сабабли пайдо бўладиган функционал (хақиқий) сийдик тутаолмасликни қўшни аъзолар дан оқма орқали сийдикни



экстрауретрал ажралишидан дифференциация қилиш керак. Бундай ҳолатларнинг асосий фарқи шундан иборатки, сийдикни функционал тутаолмаслик сийиш фазаси билан боғлиқ, сийдикни экстрауретрал тутаолмаслиқда эса сийдик доим оқиб туради. Ташхислаш тадбирлари сийдик тутаолмаслик борлигини нафақат объектив тасдиқлаш, унинг симптомларини батафсил текшириш ва типини қўйиш, балки патологик жараённинг ўзига хос кечишига сабаб бўладиган омилларни ҳам аниқлашдан ва даволаш самарасининг прогнозини беришдан иборат бўлади. Шифокор шикоятларни баҳолаганда биринчи галда сийиш ритмини ва хусусиятини аниқлаши керак, беморнинг ўзи тўлғазадиган сийиш кундалигини тахлил қилганда уларни объектив баҳолаш мумкин. Кундалиқда вақт ва ҳар бир сийиш ҳажми қайд қилиниши, ҳамма императив қисташлар, сийдикни тутаолмаган эпизодлар ва қистирмаларни алмаштириш таъкидланиши керак (17.2 – расм). Тўғри ва тартибли тўлдирилган сийиш кундалиги бўлганда мутахассис биринчи текширишнинг ўзидаёқ сийдик тутаолмасликнинг ифодаланиш даражаси ва унинг типи тўғрисида тахминий хулоса қилиши мумкин. Беморни сўраб суриштирганда сийишнинг бошқа бузилишлари (оқимнинг сусайиши, қовуқнинг тўлиқ бўшамаслиги, узилиб – узилиб ёки бир неча марта сийиш), оғриқ, шу жумладан сийиш билан боғлиқ оғриқ, гематурия ҳамда сийдикни кўз билан кўрганда ўзгариш бўлиши мумкинлиги тўғрисида маълумот олиш керак. Анамнезни йиққан вақтда касалликни қўзғатувчи омиллар: оғир жисмоний меҳнат, спорт билан шуғулланиш, бошдан кечирилган операциялар, туғиш характеристи ва сони, шикастлар, интеркуррент касалликлар (айниқса неврологик, қандли диабет, ичак фаолиятининг бузилиши), дори препаратларини қабул қилганлиги аниқланади. Бошқа урологик касалликлар борлигига, жумладан сийдик – тош касаллиги, гормонал дисфункциялар, сексуал бузилишлар борлигига эътибор бериш керак. Умумий статусни баҳолашдан ташқари, гинекологик томонидан чаноқ оъзолари чиқиши борлиги, уретранинг жойлашиши ва унинг ҳаракатчанлиги баҳоланади, “йўталиш” синамаси ўтказилади. Буни қовуқни 200 мл. гача тўлдиригандан амалга оширилади. Аёлдан аввал қучаниш, кейин эса йўталиш сўралади, яъни қорин ички босимини кўтариш қўзғатилади. Агар кучангандан ёки йўталгандан уретрадан сийдик беихтиёр ажралса, синама мусбат ҳисобланади. Бу сийдик тутаолмаслик стрессли компонентининг тасдиғи бўлади. Сийдикни тутаолмаганда, айниқса императив компоненти билан бўлганда, биринчи навбатда сийдикнинг умумий клиник тахлилини қилиш керак. Яллиғланиш



ўзгаришлари бўлганда сийдикни экиб, бактериал флорага ва антибиотикларга сезувчанлигини аниқлаш, гематурия аниқланганда эса цистоскопия қилиш лозим. Асбоб – ускунали усуллардан эндоскопик, нур, функционал ва уродинамик текширишлар қўлланилади. Қорин орқали ультратовуш сканирлаш юқори ва яна муҳимроқ пастки сийдик йўллари: қовуқ конфигурацияси ва контурининг текислиги, ўスマлар, тошлар, дивертикуллар, қовуқнинг аёллар репродуктив тизими аъзолари билан ўзаро муносабати ва уларнинг ҳолати тўғрисида қимматли маълумотлар олиш имконини беради. Бундан ташқари, бу текшириш bemorning сийгиси қистаганда қовуқ ҳажмини ва қолдиқ сийдик миқдорини аниқлаш мумкинлигини беради. Ташхислашда муҳим усул қин орқали ультратовуш сканерлаш бўлади, бу уретра ва қовуқнинг ўзаро жойлашишини аниқлаш, кичик чаноқ аъзолари тузилишини батафсил текшириш ва қовуқ – уретра бурчагини ўлчаш имконини беради. Меъёрдаги қовуқ – уретра бурчаги сийдикни тутиб туришда муҳим омил бўлади. Стрессли сийдик тутаолмасликда бу бурчак очроқ бўлиб туради. (17–3 – расм). Бу соҳадаги келажакни 3–ўлчамда ультратовушли кўриш усули очади Сийдик тутаолмагандан уродинамик текширишни қўллаш мажбурий усул қаторига киритилади. У урофлоуметриядан бошланади, бу усул bemorning 733 сийиш ҳолатини объектив баҳолаш, қовуқнинг ностабиллиги белгиларини ёки обструкцияни аниқлаш имконини беради. Кўпинча симптомларини, сийиш кундалиги, физикал текшириш, сийдик тахлили, ультратовуш текшируви ва урофлоуметрия маълумотларини билиш сийдикни императивли тутаолмаслик ташхисини қўйиш ва даволашни буюриш учун етарли бўлади.

Даволаш.

Сийдик тутаолмаслик билан азоб чекувчи кўпчилик bemorлар сийдик оқишининг олдини олиш учун мустақил равишда ҳар хил усуллардан фойдаланадилар, асосан қистирма ёки сўриб оловчи воситалар(памперс)ишлиладилар, суюқлик қабул қилишни, жисмоний ишни чеклайдилар, хожатхоналарнинг жойлашишини хисобга олиб сафарга боришни режалаштирадилар, ҳаёт тарзини ўзгартирадилар. Шунга қарамай, бундай ёндошишлардан бирортасини ҳам патогенетик деб бўлмайди, бу уларнинг самарадорлиги чекланганлигини белгилайди.

1. U R O L O G I Y A Shodmomov Alisher Qayumovich 2008
2. УРОЛОГИЯ Акилов Фарҳад Атауллаевич 2011



**KATTA O'LCHAMLI YARIMO'TKAZGICHЛИ YADROVIY
NURLANISHLARNI QAYD QILUVCHI DETEKTORLARINING
KIMYOVIY TEKNOLOGIK JARAYONLARINING
MATEMATIK MODELLASHTIRISH**

G'.J. Ergashev¹, Yo.K. Toshmurodov¹, F.K.Islomova²

O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi Yarimo 'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent sh.

Qarshi davlat universiteti, Qarshi sh.

Toshkent kimyo-teknologiya instituti, Toshkent sh.

E-mail:giyosjonergashev23@gmail.com

Annotatsiya: Katta diametrli ($d > 100$ mm) kremniy monokristallarida p-n yoki p-i-n tuzilmalari negizida katta o'lchamli sezgir yuzalar va hududlarga ega bo'lgan yuqori sifatli detektor tuzilmalarini ishlab chiqarishda texnologik jarayonning har bir bosqichini kompyuter modellashtirishni amalga oshirish.

Annotatsiya: Осуществление компьютерного моделирования каждого этапа технологического процесса при производстве высококачественных детекторных структур с большими чувствительными поверхностями и площадями на основе p-n или p-i-n структур в монокристаллах кремния большого диаметра ($d > 100$ мм).

Annotation: Implementation of computer simulation of each stage of the technological process in the production of high-quality detector structures with large sensitive surfaces and areas based on p-n or p-i-n structures in large-diameter silicon single crystals ($d > 100$ mm).

Kalit so'zlar: suspenziya, diffuziya, elektrofizik, radiometriya.

Ключевые слова: супензия, диффузия, электрофизика, радиометрия.

Keywords: suspension, diffusion, electrophysics, radiometry.

Yarimo'tkazgichli detektorlar tayyorlashda dastlab monokristal kremniy plastinasini qirqish jarayoni amalga oshiriladi va qirqish jarayonida hosil bo'gan nuqsonlarni bartaraf etish uchun mexanik va kimyoviy jarayonlar olib boriladi. Yarimo'tkazgichli yadroviy nurlanishlarni qayd qiluvchi detektorlarini ishlab chiqarish texnologiyasining dastlabki bosqichida yarimo'tkazgich kremniy plastinalari tekisligini va tekis paralellikni yaxshilash, shuningdek plastinalarni



zaruriy o'lchamga moslashtirish va kerakli sirt tozaligini olish uchun mexanik ishlov berish jarayoni amalga oshiriladi.

Yarimo'tkazgich plastinalarini mexanik ishlov berish jarayoni uchun quyidagi moddalar ishlatalgan: B₄C bor karbid; SiC kremniy karbid. Kukunlarning mikro qattiqligi mos shkalasi bo'yicha 10^{-9} qiymatni tashkil etadi, kukunlarning diapazoni M-5 dan M-14 gacha mexanik ishlov jarayonida foydalaniлади. Mexanik ishlov berish jarayoni kukunlarning donadorligini katta donalardan mayda donalarga qadar ketma-ket o'zgartirish orqali amalga oshirildi. Katta diametrli yarimo'tkazgichli plastinalarni silliqlash abraziv suspenziya yordamida amalga oshirildi, bu erda suv oqimi suyuqlik sifatida ishlatalgan. Silliqlash jarayonining o'zi shisha doira yuzasida, donalarni sirt bo'ylab bir tekis taqsimlash, ishqalanishni kamaytirish va issiqliknini olib tashlash, shuningdek zarba-tebranish harakatlarini yumshatish uchun amalga oshiriladi.

Ma'lumki, abraziv materialning o'lchamlarini ketma-ket ishlatish va plastinalarni yaxshilab yuvish mikro yoriqlar va boshqa strukturaviy nuqsonlarni olib tashlash amalga olshirildi. Mikro yoriqlar va boshqa tarkibiy nuqsonlar begona ionlarning to'planishi uchun joy bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu esa plastinalarni kesish yoki uzoq vaqt saqlash bilan bog'liq. Bularning barchasi zaryad tashuvchilarning umrini, ya'ni radiaktiv nurlanishlarni qayd qilish samaradorligini sezilarli darajada kamaytiradigan rekombinatsiya markazlarining paydo bo'lishiga olib keladi [1; c. 1-2]. Shuning uchun plastinalarni har ikki tomonidan 50 mkm chuqurlikda M14-M5 mikro kukunlari bilan mayda kukunlarni ketma-ket qo'llash orqali silliqlash kerak va har bir kukun sonidan keyin plastinalar ultratovushli aralashtirish yordamida distillangan suvda 10 min. davomida yuviladi va infraqizil yorug'lik yurdamida quritiladi. Kimyoviy texnologiya – bu kremniy plastinasidagi sirtiy va chiziqli nuqsonllarni bartaraf etishda xizmat qiladi. Ma'lumki, yarimo'tkazgichli kremniy plitalarining yuzasi etchant bilan o'zaro ta'sirlashganda ma'lum reaksiyalar ketma-ketligi kuzatiladi.

Kremniy sirtidagi nuqsonlarni bartaraf etishda kislotalardan tayyorlanilgan qorishmaning umumiyligi tezligini va unung haroratini nazoratga olgan holda kimyoviy emirilish jarayonini boshqarishga erishish lozim.

Ushbu holatda, kremniy asosidagi katta diametrli yadro nurlanishlarini qayd qiluvchi detektorlarini tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishda, p-n birikmasini, kimyoviy emirilishi, shuningdek kristalli tuzilishdagi nuqsonlarni aniqlashda va bartaraf etishda ishlatalgan.



Katta o'lchamli kremniy materialini tanlash va unda texnologik jarayonlarni amalga oshirish ba'zi qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lib, ular kengaytirilgan sirtiy maydonni, plastinkaning bir xil qalinligini diqqat bilan nazorat qilish, sirtning tarkibini tanlash, kremniy plastinasi tomonlarini tekis parallelligini ta'munlash va boshqalar bilan bog'liq.

Kimyoviy-texnologik jarayonlar odatda harakatlanuvchi oqimlarda sodir bo'ladi, ularning harakatlanishining gidrodinamik naqshlari kimyoviy ishlab chiqarish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun matematik modellarni tuzishda moddalar oqimlari harakatining tavsifi muhim ahamiyatga yega bo'ladi.

Kimyoviy-texnologik jarayonlar odatda harakatlanuvchi oqimlarda boradi, ularning harakatining gidrodinamik qonuniyatları kimyoviy ishlov berish samaradorligi sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun matematik modellarni tuzishda moddalar oqimining harakatini tavsiflash muhim ahamiyatga ega. Kimyoviy yemirilishda kremniy plastinasini belgilangan qalinlikda va yuqori sifatda amalga oshirish o'ziga xos murakkab jarayon xisoblanadi. Azot, uksus va ftoristavodorod kislotalaridan foydalanib qorishma tayyorlab olinadi va qorishma past xaroratda sovitildi.

Kremniy plastinalarni, murakkab konfiguratsiyali qismlarini va sirt g'adir budirligi parametrlariga (aniqlik bilan ishlov berish, kimyoviy va kimyoviy-mexanik silliqlash) ma'lum bir qalinlikkacha kimyoviy ishlov berish. Jarayonni aniq nazorat qiluvchi uskunada sovuq kislota eritmalarida (azot, uksus, ftorli vodorod va boshqalar) kimyoviy ishlov berish. Yarimo'tkazgichli materiallarning kristall tuzilishidagi nuqsonlarni kimyoviy aniqlash. Mikroskoplarda profilning chuqurligi va kengligini o'lhash. Silliqlash va kimyoviy ishlov berish, elektrolitlar uchun murakkab yeritmalar tayyorlash. Kimyoviy ishlov berishning optimal rejimlarini tanlash. Yangi texnologiyani sinovdan o'tkazishda kimyoviy va kimyoviy-mexanik silliqlash va kimyoviy ishlov berishda ishlatiladigan eritivchilar uchun suspenziyalarni tanlash. Yarimo'tkazgichli plastinalarni texnologik hujjatlar bo'yicha belgilangan qalinlikka yetgunga qadar ishlov berish, kimyoviy tozalash. Ushbu o'lchamlarni saqlab qolgan holda, yetish qiyin bo'lgan ichki yuzali detallarga va rezbali qismlari bo'lgan detallarga kimyoviy ishlov berish.

Umumiyl holda, mukammal siljish oqimida boradigan yadroviy nurlanishning qayd qiluvchi yarimo'tkazgichli detektorlarini ishlab chiqarishning kimyoviy-texnologik jarayonini matematik modellashtirish tavsifi differential tenglamalar tizimidir. Ko'pincha bunday differential tenglamalar tizimini analitik yechish



mumkin emas va shuning uchun ularni yechishda sonli usullar qo'llaniladi. Odatda Koshi masalasini yechishga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtida oddiy differensial tenglamalarni va bunday tenglamalar tizimini yechishning yeng aniq usullari Runge-Kutta usullari.

Koshi masalasini ko'rib chiqamiz

$$\frac{dy}{dx} = f(x, y), y(x_0) = y_0 \quad (1)$$

funksiyaning boshlang'ich qiymati.

Shunda, funksianing har bir $(i+1)$ -qadamagi taxminiy qiymati integratsion formula bilan hisobchiqiladi:

$$y_{i+1} = y_i + \frac{1}{6} (k_1 + 2k_2 + 2k_3 + k_4) \quad (2)$$

Har bir qadamda y qiymatini hisoblash to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

$$k_1 = h \cdot f(x_1, y_i) \quad (3)$$

Shunda, matematik modellarni qurishning ketma-ketlikka muvofiq, bir parametrli diffuziyali gidrodinamik modelning tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi.

$$\frac{dC}{dt} = u \frac{n}{\tau} \cdot (C_{i-1} - C_i) \quad (4)$$

Bunda $t=0 C(0)=C_0$.

Bunda $i = 1$ uchun idial aralashma modeli, $i \rightarrow \infty$ uchun esa idial siljish modelini olamiz.

Agar kremniy plastinasida kimyoviy kislotalar yordamida amalga oshiriladigan kimyoviy emirilish jarayoni vaqtida reaksiya tezligi va haroratini meyyorda saqlash katta ahamiyatga ega (2.2 - rasm).

Bunda quyidagi funksiyani ko'rish mumkin:

$$F = W = k_{01} \cdot e^{\frac{-E_1}{RT}} \cdot C_A - k_{02} \cdot e^{\frac{-E_1}{RT}} \cdot C_B \quad (5)$$

Reaksiya tezligi va haroratni optimal meyyori belgilanadi.



Optimallik kreteriyasi F uchta kattalikga bog‘liq: T , C_A va C_B . Ammo C_A va C_B ni optimallashtirish parametrlari sifatida tanlash mumkin emas, balki reaktsiya natijalari, ya’ni tezlikni oshirish uchun imkon qadar ko‘proq bo‘lishi kerak, C_A moddasi va kamroq C_B jarayonning maqsadi qarama-qarshidir – b moddaning konsentratsiyasini oshirish va moddaning konsentratsiyasini kamaytirish lozim, shuning uchun C_A va C_B kontsentratasiyasini mustaqil deb hisoblash mumkin emas.

$$T_{\text{opt}} = T_{\text{mak}} \quad (6)$$

$$W = k_{1,0} \cdot C_A \cdot e^{\frac{-E_1}{RT}} - k_{2,0} \cdot C_B \cdot e^{\frac{-E_1}{RT}} \quad (7)$$

$$\frac{dW}{dt} = 0 \quad (8)$$

$$k_{1,0} \cdot C_A \cdot e^{\frac{-E_1}{RT}} \cdot \frac{E_1}{R} \cdot \frac{1}{T^2} - k_{2,0} \cdot C_B \cdot e^{\frac{-E_1}{RT}} \cdot \frac{E_2}{R} \cdot \frac{1}{T^2} = 0 \quad (9)$$

$$k_{1,0} \cdot C_A \cdot e^{\frac{-E_1}{RT}} \cdot E_1 = k_{2,0} \cdot C_B \cdot e^{\frac{-E_2}{RT}} \cdot E_2 \quad (10)$$


$$\frac{E_1 \cdot k_{1,0} \cdot C_A}{E_2 \cdot k_{2,0} \cdot C_B} = \frac{e^{\frac{-E_2}{RT}}}{e^{\frac{-E_1}{RT}}} = e^{\frac{E_1 - E_2}{RT}} \quad (11)$$

$$\ln \left(\frac{E_1 \cdot k_{1,0} \cdot C_A}{E_2 \cdot k_{2,0} \cdot C_B} \right) = \frac{E_1 - E_2}{RT} \quad (12)$$

Kimyoviy emirilish jarayonida amaliy natija bilan matematik modelning nazariy natijalari taqqoslab ko‘rildi. Kimyoviy emirilish jarayonida vaqtida muntazam ravishda kimyoviy aralashma harorati o‘lchab borildi va turli haroratdagi kremniy plastinasi qalinligi ham o‘lchab nazorat qilindi

Kimyoviy emirish jarayoni vaqtida kislota harorati quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$T = \frac{E_1 - E_2}{k \cdot \ln \left(\frac{E_1 \cdot k_{1,0} \cdot C_A}{E_2 \cdot k_{2,0} \cdot C_B} \right)} \quad (2.13)$$



2.3 - rasm. Kremniy plastinasini kimyoviy emirilishning vaqtga bog‘liqlik grafigi. 1. amaliy natija; 2. nazariy natija.

Ayni vaqtda yadroviy nurlanishlarni qayd qilishda kremniy asosidagi detektorlaridan foydalanish zaryadlangan zarralarni aniqlash uchun yeng istiqbolli hisoblanadi. Yarimo‘tkazgichli detektorlar yadro fizikasi tajribalarida keng foydalaniлади, shuningdek, tibbiyat, geologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalarda sohalarda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, ularning yaratilishi bir qator fizik, konstruktiv, texnik va texnologik xususiyatlar bilan bog‘liq. Ular katta diametrli boshlang‘ich kristalning mukammalligi tufayli effektlarning namoyon bo‘lishi va ular asosida samarali yadroviy nurlanishni qayd qiluvchi detektorlarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq.

Xulosa

Katta diametrli ($d > 100$ mm) kremniy monokristallarida p-n yoki p-i-n tuzilmalari negizida katta o‘lchamli sezgir yuzalar va hududlarga ega bo‘lgan yuqori sifatli detektor tuzilmalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Demak, katta o‘lchamdagи dastlabki kremniyning samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lgan fizikaviy jarayonlarni chuqurroq tushunishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Shu bois, har bir bosqichda, dastlabki kremniy xossalaring detektoring elektrofizikaviy va radiometrik xususiyatlariga ta’sir qilish darajasini hisobga olgan holda, texnologik jarayonning har bir bosqichini kompyuter modellashtirishni amalga oshirish kerak. Ushbu matematik modellar nafaqat yarimo‘tkazgichli detektorlar, balki yarimo‘tkazgichli qurilmalar, xususan, diodlar, tranzistorlar, tiristorlar va boshqalar uchun ham qo‘llanilishi mumkin.



Yarimo‘tkazgich kristallari hajmidagi nuqtali nuqsonlar, dog‘lar, klasterlar va boshqa kamchiliklarni aniqlash va taqsimlashning bir xilligini birinchi navbatda o‘rganish kerak.

Kompyuter matematik modeli tajribasining asosiy vazifalaridan biri uning kirish va chiqish parametrlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy shaklda tavsiflovchi qurilmaning matematik modelini ishlab chiqish va tekshirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muminov, R. A., Radzhabov, S. A. & Saimbetov, A. K. Developing Si (Li) nuclear radiation detectors by pulsed electric field treatment. Tech. Phys. Lett. 35, 768–769 (2009).
2. А.Воронин Моделирование кремниевых детекторов при разработке считающей электроники. Журнал Электроника-2018. №10 (00181) стр. 121-127.
3. Ramírez-Jiménez, F. J., Mondragón-Contreras, L., & Cruz-Estrada, P. Application of PIN diodes in physics research. In AIP Conference Proceedings, Vol. 857, No. 2 pp. 258-260. (American Institute of Physics, 2006).
4. Loupilov, A., Sokolov, A. & Gostilo, V. X-ray Peltier cooled detectors for X-ray fluorescence analysis. Radiat. Phys. Chem. 61(3–6), 463–464 (2001).
5. Bosco, G. L. Development and application of portable, hand-held X-ray fluorescence spectrometers. TrAC Trends Anal. Chem. 45, 121–134 (2013).
6. Muminov, R. A., Saymbetov, A. K., Toshmurodov, Yo. K. Special features of formation of high-performance semiconductor detectors based on α Si–Si (Li) heterostructures. Instrum. Exp. Tech. 56, 32–33 (2013).



ХОНА О'СИМЛИКЛАРИГА ЕКОЛОГИК ОМИЛЛАРНИГА ТА'СИРИНИ О'РГАНИШ БО'YИЧА БИОЛОГИК ТАЖРИБА ВА КУЗАТИШЛАР О'ТКАЗИШ

Umarbekova Mohinabonu Odiljon qizi

Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan mакtabning o'quvchisi

Annotatsiya: Xona o'simliklarda kechadigan fiziologik jarayonlar ,Xona o'simligini ekalogiyaga ta'sirini o'rganish , Xona o'simligidan yangi navini o'rganish va inson hayotidagi ahamiyati , Oxalis oilasi haqida ,Tadqiqotning dolzarbli .

Kalit So'zlar: benzol, fitoxromlar, xlorofil, oxalis, abiotik, biotik, antropogen, ekalogiya

KIRISH. Xona o'simliklarini o'rganishdan oldin ularni o'sish mexanizmi va fiziologiyasini o'rganish zarur. O'simliklarni oyekti bu yashil o'simliklar sanaladi qusyosh nuridan energiya manbai sifatida foydalanishi va uni organik birikmalarning kimyoviy energiyasiga aylantirib berishi boshqa organizmlardan farq qiladi. Xona o'simliklarini ekalogiyaga ta'siri odatda xona o'simliklari ham xona havosidagi gazlarni yutadi, lekin ular samara bermaydi. Odatdagi kattalikdagi xona havosida yig'ilib qolgan zaharli farmaldegid gazini yutishi uchun o'sha xonada 20dan ortiq o'simlik bo'lishi kerak.

Xona o'simliklarda kechadigan fiziologik jarayonlar. Xona o'simliklar fizilogiyasi rivojlanishiga maxsus qurilmalar-fitotronlarning yaratilishi katta ahamiyatga ega. Bunday ishlar o'simliklarni iqlimlashtirish, intraduksiya qilish, daragaylash, navlarni mintaqalarga qarab joylashtirish, turli xil agrotexnik tadbirlar: o'g'itlash sun'iy sug'orish kabi muhim masalalarni hal qilishga imkon beradi. 1727-yilda ingliz olimi S.Geyls o'simlik to'qimalari bo'ylab suv va mineral moddalarning harakatini aniqladi. Ingliz olimi J.Pristli yashil o'simliklar hayat faoliyati tufayli buzilgan havo tozalanishi hayvonlarning hayat kechirishi, yonish sodir bo'lishini aniqladi. XX asirning ikkinchi yarmida fizialogik jarayonlarni boshqarishda fitoxromlar qatnashishi, ular xlorofil hosil qilishda ishtirok etuvchi fermentlarning biosintezida induktorlik vazifasini bajarishi, xloroplastlar va fotosintetik apararatning shakillanishida muhim ahamiyatga ega ekankligi isbotlandi.



Xona o'simligini ekalogiyaga ta'sirini o'rganish Ekalogik omillar-atrof muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlar va elementlar majmui. Tirik organizmlarga ta'sir etuvchi muhitning har qanday bo'laklari ekologik omillar deyiladi. Muhit-quruqlik, suv, havo va yer osti boyliklaridan iborat. Tashqi muhit tushunchasidan tashqari yashash sharoitlari degan tushuncha ham mavjud bo'lib, bu tushunshaga organizmning yashashi uchun zarur bo'lgan elementlar yoki omillardan yorug'lik, issiqlik, suv, oziqlanish va shu kabilar kiradi. 1933-yilda D.N. Kashkarov muhit omillarini 3 guruh iqlim, edafik va biotikga bo'ladi. Keyinchalik 1950-yilda Alyoxin ekologik omilarni iqlim, edafik orografik, biotik, antropogen va tarixiy usullarga bo'lib o'rganishni taklif qiladi.

Xona o'simligidan yangi navini o'rganish va inson hayotidagi ahamiyati.

Xonadagi zararli hisoblangan gazlar-xloroforum va benzoldan tozalovchi tillarang epipremnum deb nomlanuvchi xona o'simligini transgen navini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Xona havosida ko'pincha uchib yuruvchi farmaldegid, benzol va xloroforum kabi turli organik modddalar zaharli bo'ladi. Ular havoda ovqat tayyorlash, chekish natijasida ajralib chiqadi. Bu o'simlikni ko'paytirishdan maqsad havoni erkin kislorodga boyitishdir.

Oxalis oilasi haqida

Oxalis - Oxalislardan mansub otsu o'simliklar turkumi. Bu o't deyarli barcha qit'alarda keng tarqalgan va hatto Irlandiyaning ramzi hisoblanadi. O'simlik bu nomni barglarning nordon ta'mi tufayli oldi; Lotin tilida Oxalis ham nordon degan ma'noni anglatadi. Mamlakatimizda bu gul "quyon karam" laqabini oldi. Sakkiz yuzga yaqin yovvoyi oksalis turlari mavjud bo'lib, etishtiriladiganlar orasida bog 'va yopiq turlari ham bor. Oksalizlarni bir so'z bilan tavsiflash qiyin, chunki jinsda bir yillik va ko'p yillik o'simliklar, ildizpoyali va piyozi o'tlar mavjud. Ushbu gullarning barglari petiole ustida joylashgan bo'lib, u palma yoki uchburchakdir. Qiziqarli xususiyati shundaki, u kechqurun egilib, ertalab ochiladi. Barglarning rangi turlarga bog'liq va yashil, bordo yoki binafsha rangga ega. Gullar kichik, muntazam, asosan nozik ohanglardir. Kechqurun, shuningdek, yomon ob-havodan oldin, gullar yopiladi. Urug'lar tegib ketganda osongina yorilib ketadigan mevada pishadi. Bundan tashqari, o'simlik pishirishda ishlatiladi - u birinchi kurslarga, choylarga, kvasga qo'shiladi. Madaniyatda ko'pincha uchburchak va to'rt bargli oxalis o'stiriladi.

Tadqiqotning dolzarbliyi .

Xozirgi vaqtida bizning vazifamiz ko'proq kislorod sssindapus havoni benzoldan tozalaydi. O'simlikni keng barglari bu moddani katta miqdorda ham "o'zlashtira" olish hususiyatiga ega. Benjamin fikusi-havoni eng yaxshi tozalovchi



o'simliklardan ikkinchi o'rinda turadi. Changni o'ziga oxangrabodek tortib oladi. . ajratadigan, havoni namlab turuvchi, zaharli toksinlardan tolovchi gullarni ko'paytirishdir. Huddi shu kabi gullarga o'rgimchaksimon o'simlik: allergiya rivojlanishini kamaytirishga yordam beradi va chang tufayli paydo bo'lgan tumovdan xalos qiladi. Uning barglari allergenlarni o'zlashtirishga qodir va ikki kun ichida xonani 90 foiz toksinlardan tozalaydi. Tillarang organimning yashashi uchun zarur bo'lgan

Xulosa.

Mening ilmiy ish qilishimdan maqsad shuki, xona gullarini ekalogiyaga ta'sirini o'rganish va ular ustida tajribalar olib borib tunda ham kislorod ajhratuvchi va havoni zaharli gazlardan tozalaydigan navlarni yaratishdir.



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ЙОШДАГИ БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЙОНЛАРИ

Choriyeva Durdon Anvarovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasi v.b.dotsenti

Choriyevadurdona76@gmail.com

Tojiyeva Muxlisa Baxodir qizi, Aslanova Maftuna O`ktamxon qizi

“Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi”

yo'nalishining 4 kurs talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy tarbiya hamda bolaning ijtimoiylashuviga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarni shakllantirish jarayonini olib borish chora-tadbirlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiylashuvi, ijtimoiy madaniyat tajribalari, ijodkorlikni oshirish, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq-atvorning me’yor va qoidalari.

Annotation. This article highlights measures to implement the process of forming socially significant qualities aimed at social education and socialization of the child in preschool educational organizations.

Keywords. Socialization, experience of social culture, increased creativity, social relationships, social status, norms and rules of social behavior.

Аннотация. В данной статье освещены мероприятия по осуществлению процесса формирования социально значимых качеств, направленных на социальное воспитание и социализацию ребенка в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова. Социализация, опыт социальной культуры, повышение творческих способностей, социальные отношения, социальный статус, нормы и правила социального поведения.

Pedagogika faoliyat- bu ta'lim-tarbiya vositasida o`quvchilarga ijtimoiy madaniyat tajribalarini singdirishga qaratilgan kasbiy faoliyatdir. Ijtimoiy pedagogik faoliyat- bu bolaning ijtimoiylashuviga, ularga ijtimoiy madaniyat tajribalarini singdirishga, jamiyatda o`z-o`zini boshqarishga sharoitlar yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyatdir. U ma'lum shaxsga qaratilgan bo`lib, aniq manzilga yo`naltirilgan



faoliyatdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- MTTdagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat,
- bolalarning ijodkorligini oshirish va dam olishini tashkil etishga mas'ul tashkilotlardi ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy yo`nalishlaridan biri ijtimoiy me'yordan chekingan (o`qish) bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish hisoblanadi.

Bu esa ikki shaklda amalga oshiriladi:

- 1.Bevosita bolaning o`zi bilan olib boriladigan ishlar.
- 2.Bolaning ijtimoiy muhit bilan aloqasida vositachilik qilishi.

Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalardan biri bo`lgan ijtimoiy ta'lim kategoriyasi ikki tomonlama xususiyatga ega.

Birinchidan, ijtimoiy ta'lim-bu bolaning ijtimoiylashuviga yordam beruvchi ijtimoiy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni bo`lib, ijtimoiy ta'lim-bu ijtimoiy sohada ishlash uchun maxsus tayyorgarlik ko`rish jarayonidir.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarbiya esa bolaning ijtimoiylashuviga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarni shakllantirish jarayonidir.

Ijtimoiy tarbiya muammolari xususida A.V.Mudrik, V.D.Semyonova, G.N.Filova singari olimlar tadqiqotlar olib borgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuv jarayonida jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq-atvorning me'yor va qoidalari haqidagi turli bilimlarni, jamiyatga ko`nikishiga yordam beruvchi turli ko`nikma va malakalarni o`zlashtiradi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalikda juda jadal sur'atlar bilan amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o`z aksini topuvchi nihoyatda ko`p bilimlarni oladi.

Bola ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati, uning jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baxo berishi va nazorat qilishining qiyinligidadir. U bularni faqat o`zlashtirib boradi, shuning uchun ham bola shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarning (psixolog, shifokor, pedagog va shu kabilar) ta'siri katta bo`lib, bolalarni, hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq; va yaxshiroq; o`zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog`liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog`liqligi shundaki, mакtab yoki boshqa ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish jarayonida bola, avvalo, akademik bilimlarni o`zlashtiradi. Biroq shu bilan bir vaqtda unda muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko`nikma va malakalar shakllanadi. Bu bilim, ko`nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida bolaga



maxsus yordam kerak bo`lganda juda zarur bo`ladi. Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni yetkazish, ijtimoiy ko`nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta`lim deyiladi.

Ijtimoiy tajribani tashkil qilish gurux (jamoa) larning maishiy va hayotiy faoliyatini tashkil qilish, guruxdagi o`z- o`zini boshqarish faoliyatini rag`batlantirish va norasmiy mikroguruxlarga ta`sir etish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy tajriba keng ma`noda turli ko`nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me`yori va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, moslashish tajribasi, shuningdek o`z- o`zini anglash, o`ziga ishonch, o`z ijtimoiy hayot yo`lini belgilash va shu yo`ldan borish tushuniladi.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda, o`z- o`zini rivojlantirishda, jamiyatdagi mavqeini, o`rnini yuksaltirishda namoyon bo`ladi. Individual yordam boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo`lgan bilim, malakalarni o`zlashtirishda insonga ongli yordam berish, uning o`z qadrini bilishi, o`z-o`zini anglashi hamda unda oila, gurux va jamiyatga mansublik hissini rivojlantirishdir. Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta`lim va individual yordamning usul, shakl, mazmun, tavsifi va jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarining yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi va ularning qaysi ijtimoiy madaniy sohaga mansubligiga bog`liq. Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o`zaro munosabat shu jarayonning subyektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari va qadriyatlar almashinuvidir. Bunday munosabat ijtimoiy jihatdan tabaqlashgan, alohida ko`rinishga ega. Chunki o`zaro munosabatning aniq ishtirokchilari muayyan etnik ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruhlar vakili bo`la turib, o`z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruxlarga tegishli ijtimoiy xulqni amalga oshirishadi.

Umuman olganda, o`zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarining birgalidagi faoliyati, bu faoliyatning mazmuni, xarakteri, tarbiyaviy samaradorligi, faoliyat ishtirokchilari va ular o`zlarini qay darajada shaxs deb hisoblashlariga bog`liq. O`zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma`naviy bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirishda qulay sharoitlar yaratadi. Har bir tarbiyachi ijtimoiy pedagog sifatida maktabgacha ta`lim tizimida o`z faoliyatini amalga oshiradi. Ijtimoiy pedagog bolalarni qanday o`qiyotganini va rivojlanayotganini tushunadigan va his etishi lozim. U bola hayotini, kechinmalarini xuddi o`zinikidek tushunadigan va uning ma`naviy, madaniy, axloqiy rivojlanishiga yo`llanmalar bera oladigan mutaxassis bo`lmog`i kerak. Shuning uchun xaqiqiy pedagog faqat o`z fanini bilibgina qolmay, ayni vaqtida



bolalar va kattalar bilan ijodiy muloqot qila oladigan, o`z ustida ishlaydigan inson bo`lishi muhim ahamiyatga ega.

Ta`lim jarayonini ijtimoiylashtirish natijasida maktabgacha yoshdagagi bolalar hayot mohiyatini anglaydi. O`z hayoti davomida inson to`g`risida hosil qilingan tushunchalar asosida mukammal shaxs va haqiqiy fuqaro bo`lib yetishadi.

Adabiyotlar:

1. K.Turg`unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov “Ijtimoiy pedagogika asoslari” T/2008 yil.
2. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
3. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
4. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
5. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
6. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУФУЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014> Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.
7. Chorieva, D. A. BO`LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO`LLARI. O`ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI NİZOMİY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.



8. Gaynazarova, G. A. (2023). OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR INDIVIDUAL TA'LIMINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 60-64.
9. Gaynazarova, G. A., & Olimjonova, N. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY MOSLASHUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 65-72.
10. Kamaldinovna, B. M., & Abdullayevna, G. G. (2022). DEVELOP SOCIAL ACTIVISM SKILLS IN HIGHER EDUCATION STUDENTS.
11. Ibraimov, X., & Gaynazarova, G. (2023). THE CONTENT OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF INDIVIDUAL EDUCATION. *Science and innovation*, 2(B12), 330-333.
12. Gaynazarova, G. A., & Bahronovna, I. Z. (2023). MEDIASAVODXONLIKNING YOSH AVLOD MA'NAVIYATIGA TA'SIRI. *WORLD OF SCIENCE*, 6(11), 123-128.
13. Gaynazarova, G. A. (2023). OTA-ONA QARAMOG 'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALAR MA'NAVIYATIDA IJTIMOIY MUHITNING TA'SIRI. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
14. Sobirovna, T. Z. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIY-AXLOQIY TARBIYASIDA OILANING ROLI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 34(2), 30-32.
15. Sobirovna, T. Z. (2023). IJTIMOIY PEDAGOGNING OILA BILAN ISH YURITISHI SHAKLLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 34(2), 33-34.



DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYALASHNING MAQSADI HAMDA VAZIFALARI

Choriyeva Durdona Anvarovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

*Maktabgacha ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim
psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasi v.b.dotsenti*

Choriyevadurdona76@gmail.com

Ortiqova Zarinabonu Akbar qizi,

Obidjonova Umida Abdubosit qizi

“Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi”

yo’nalishining 4 kurs talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarda pedagogik diagnostika va korreksiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari hamda bolalar jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni xususiy korreksiyalarni olib borish chora-tadbirlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha yosh, empirik tadqiqotlar, nazariy tadqiqotlar, bilishga qiziqish, o‘yin faoliyati, tafakkur, samarali o‘qish.

Annotation. This article highlights the features of pedagogical diagnostics and correction in preschool educational organizations, as well as measures to implement private correction of social relations in the children’s community.

Keywords. Preschool age, experiential studies, theoretical studies, interest in learning, play activities, thinking, effective reading.

Аннотация. В данной статье освещены особенности педагогической диагностики и коррекции в дошкольных образовательных организациях, а также мероприятия по осуществлению частной коррекции социальных отношений в детском сообществе.

Ключевые слова. Дошкольный возраст, эмпирические занятия, теоретические занятия, интерес к учебе, игровая деятельность, мышление, эффективное чтение.

Pedagogik-psixologik diagnostika va korreksiya tarbiyachiga bolaning qiyinchiliklarining tabiatini aniqlashga va ularning sabablarini aniqlashga imkon beradi. Bu bola va tarbiyachi faoliyatini tartibga solishni ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya jarayonining rivojlanishini ta’minlaydi. Topshiriqlarni bajarishda duch



kelgan qiyinchiliklarning xususiyatini anglab, bolalarning doimiy xatolarining sabablarini aniqlash va aniqlangan sabablarni bartaraf etish usullarini qo'llashga yordam beradi.

Pedagog - tarbiyachi pedagogik diagnostika usulidan foydalanib, o'zi olib boradigan ta`lim-tarbiya jarayonining rivojlanish samarasini aniqlay oladi. Diagnostik vazifalar bolalarga nostandart topshiriqning ma'nosini tushunish, mustaqil ravishda yangi harakat usulini topish, tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi shakllantirilishi kerak.

Maktabgacha ta`lim tashkilotiga birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularda, avvalo, maktabgacha ta`lim dargohining bir qancha qoidalariga bo'y sunish qiyin kechadi. Guruhdagi bolalar uchun eng qiyin qoida bu mashg`ulot vaqtida jim o'tirishdir. Tarbiyachilar bolalarning doimo jim o'tirishlarini talab qilishadi, lekin kam harakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg`ulot jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi. Ijtimoiy faollik - atrofdagilar bilan tez muomalaga kirishib keta olish, ko'pchilikka aralasha biliш, ulfatijonlik, dilkashlik, odamlar bilan ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa munosabatlarga kirishish. Ushbu faollikda maktabgacha yoshdagi bolalar o'z burchini anglash bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiga xos eng yaxshi sifatlar asosida, zero to'la ma'nodagi jamoatchi bo'lib, tengdoshlariga hayotda ijtimoiy faol holatning amaliy namunasini ko'rsata oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta`lim tashkiloti qoidalariga bo'y sunishga o'rgatish quyidagicha amalga oshiriladi: guruhdagi maktabgacha yoshdagi bolalarining muhim xususiyatlaridan biri ularda tarbiyachiga nisbatan ishonch hissidir.

Shuning uchun tarbiyachining maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda keng. Bola tarbiyachini aql sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi.

Tarbiyachining obro'si oldida bola uchun ota-onasi, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh urug'larining nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar tarbiyachining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar.

Yetakchi bo'lган ta`lim-tarbiya faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar - o'zin, muloqot va mehnat faoliyati ham bolalar shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lган shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. Ta`lim-tarbiya faoliyati maktabgacha yosh bolalari uchun o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek tengdoshlari orasida o'z o'rniغا ega bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Aynan ana shu o'rinni yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat



qiliши mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zлari erishgan muvaffaqiyatni boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Maktabgacha ta'lim davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsiional zo'riqishni beradi.

Demak, bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga keltirish va mustahkamlash davri, deb hisoblash mumkin. Bu davrlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. O`rta guruh bolalarida mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati unga zavq bergen taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatini shakllantirish, asosan, kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq ko'ngilli bo'lsa, unda asta-sekinlik bilan bo'ysinuvchanlik, tobelik xususiyatlari mustahkamlanib boradi. Biroq mustaqillikka undashni ertaroq boshlash, bolada ba'zi salbiy xislatlarining shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki bola hayotiy tajribalarni, asosan, kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhim. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, bola biron-bir mas'ul vazifani mustaqil bajarsin va bu ishni bajarish jarayonida o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri, deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo`lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. Maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o'z-o'zini anglashi jadal rivojlanib, mustahkmlana boradi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va o'z ismlari tengdoshlari, atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolaning o'z tashqi ko'rinishiga va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida juda katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim davrining so'nggida bolalar, ayniqsa, qizlar o'zlarining yuz tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ta'lim-tarbiya faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvori va faoliyatni o'zi tomonidan muvofiqlashtirish, ongi ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa o'z faoliyatini o'zi o'zgartirishga hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishning qaror topishiga yordam beradi. Shu bilan birga bolalarning o'z xulq-atvorini motivlashtirishi ham o'zg aradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar boiib qoladi. Axloqiy his-tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi. 5-6 yoshlarda



bolalarning ko'zga tashlangan xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagи bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgани uchun ham ularga ta'lιm berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Maktabgacha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi hamda tarbiyachi bilan bo'ladigan munosabat orqali erishish mumkin. Uning o'rtoqlari bilan bo'ladigan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan tarbiyachilar ta'lιm - tarbiya maqsadida foydalanishlari mumkin.

Maktabgacha ta'lιm yoshidagi bolalarni tashxislashda bolalarni diagnostika qilish, xulqlaridagi nuqsonlarni korreksiyalashda kuzatish hamda bu metodlarning qo'llashda savol-javob, tajriba va pedagogik testlardan foydalanish o'rini. Bolalarni tashxislashda, asosan, tanishish, ilmiy izlanuv, tanqidiy-rasmiy tasdiqlovchi bosqich tajribalaridan foydalanish mumkin. Bunda empirik va nazariy tadqiqotlardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Empirik tadqiqotlar.
2. Nazariy tadqiqotlar.

Empirik tadqiqotlar professional xodimlar (tarbiyachilar, ijtimoiy pedagog psixologlar) faoliyati ostida amalga oshiriladi. Ilmiy-nazariy tadqiqot maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida amalga oshiriladi. Bilish faoliyati tizimli va maqsadli yo'naltiriladi. Ilmiy faoliyat tizimli va maqsadli yo'naltiriladi. Bilish metodlari: kuzatuv, qiyoslash, tajriba va b. Maxsus ilmiy metodlar: abstraksiya, ideolizatsiya, formatizatsiya, modemlashtirish va b. Olingan natijalar hukm, qoida, tavsiya sifatida qayd etiladi. Maktabgacha yoshdagи bolalarni tashxislash va ularning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilash lozim. Buning uchun diagnostika va korreksiya o'tkazuvchi shaxs mazkur jarayonning tarkibini, uning ta'sir mexanizmini to'laqonli bilishi shart. Maktabgacha yoshidagi bolalarni pedagogik diagnostika va korreksiyalash, asosan, quyidagi tarkibda amalga oshiriladi. Diagnostika va korreksiyalashning maqsadi hamda vazifalarini to'g'ri belgilab olish bolada muloqot ko'nikmalarini shakllantira boshlashdan, yangi pedagogik muhitda adaptatsiyaga o'rgatishdan boshlanadi.

Maktabgacha ta'lιm yoshidagi bolalarning tarbiyalanganlik darajasiga, ularning kelgusi hayotdagi yo'rinqomalariga, avvalo, oila tarbiyasi katta ta'sir ko'rsatadi. Odamning yuksak psixik funksiyalari - idrok, diqqat va tafakkur borliqni bilish formalari sifatida qaratilishi shak-shubhasizdir. Faoliyatning bilish manbai bo'lmish muloqot esa insonning shaxsiy taraqqiyoti manbai ekanligi ma'lum.



Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolaning bilish faoliyati (sezgi, idrok, tafakkur, hayol va xotirani o'rganish tashxislashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning individual jamoatchilik xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy va tabiiy (tug'ma) xulq-atvori, xatti-harakatlarini tushuntirib, oldindan belgilashda uning biosotsial tabiatini hisobga olish zarurligi o'rganiladi. Ma'lumki, bola markaziy asab sistemasining tuzilishi, uning ishi (vazifalari) va xususiyatlari, uning markaziy va perifenk qismi, bosh miyaning tuzilishi, har bir neyronning tuzilishi va uning ish tartibi "retseptor" tushunchasi hamda uning turlari, "analizator" tushunchasi, odam bosh miya qobig'ida sodir bo'ladigan asosiy psixik jarayonlar va kishining psixik holatining asab tizimida tutgan o'rni, uning roli hamda vazifalari to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish pedagogik tashxislashni oqilona tashkil qilishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birgalikda, bola miyasida sodir bo'ladigan psixik holatlarning anatom-fiziologik xususiyatlari va bunda sezgilarning tarkib topishida ishtirok etadigan miya tuzilishi hamda tanamizdagi a'zolarining ishtiroki mexanizmlarini o'ylab ko'rish zarur. Tashxislash ayrim paytlari xulq-atvorining genetik ildizi, bunda odam psixologiyasi va uning xulq-atvori, xatti-harakatlari rivojlanishida genetika va muhit, biologik va ijtimoiy omillarni tushuntirish muammolari, irsiyat mexanizmlari haqidagi tasavvurlar asosida hal qilishga yordam beradi.

Xalq pedagogikasining ekologik tarbiya berishdagagi imkoniyatlari ham kengdir. Masalan, atrof muhit va tabiatni asrash, e'zozlash, hayvonot dunyosi, qushlar, daraxtlar, o'simliklar, yer, suv va borliqqa munosabatni ijobiy shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Turli udumlar, rasm-rusumlar, marosimlar, tabiat bayramlari bo'lm ish "Navro'z", "Hosil bayrami", "Ramazon hayiti", "Qurban hayiti" bayramlari ham ta'lif-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda katta rol o'yinaydi. Turli xalq qo'shiqlari orqali go'zallik, orzu-umid va boshqalar tarannum etilib, insonda cheksiz mehr va muhabbatni tarkib toptiradi.

Ertaklardagi voqealarda yaxshilikning doimo yomonlikdan ustun kelishi bolalarni mehr-oqibatga, yaxshilikka yetaklaydi. Ular ijobiy qahramonlardan ibrat olib yashashga o'rgatadi. Topishmoqlar - bolani topqirlikka, zehnining o'sishiga, maqollar - odob-axloqli bo'lishga, qo'shiqlar - nafosat tarbiyasiga, she'rlar - ularing so'z zahirasi oshishiga, aqliy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning xulq-atvorini korreksiyalashda quyidagilarni hisobga olish yaxshi natijalarga olib keladi:

jismoniy jihatlar; tabaqali yondoshuv (farqlash) qobiliyatining ma'lum darajasi, xotiraning rivojlanish darajasi, intellektual nvojlanish darajasi;



diqqat hamda sabr-toqatni boshqarishi, topshiriqlarni bajarishga hozirjavobligi, ishga munosabati;

bir qadar tarbiyachidan holi bo'lgan holda aloqa o'rnatish qobiliyatini ko'rsatuvchi ijtimoiy jihat.

Umuman, bolalar ongini o'zgartirish va o'stirishda yangi texnologiyalardan foydalanish juda muhim. Maktabgacha ta'linda pedagogik diagnostika va korreksiyalashning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Har bir mashg'ulotdan ko'zd a tutilgan maqsad aniqlanadi.
2. Bolalarning individual xususiyatlari inobatga olinadi.
3. Mashg'ulot mazmunini saqlashga bir tomondan bolalarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyatlari, ikkinchi tomondan - tarbiyachining ijodkorligi, mahorati; uchinchidan – mavjud shart-sharoitlar hisobga olinadi.
4. Didaktik jarayon tuzilmasi keskin farqlanadi, ya'ni uning m otivatsion bosqichi kuchaytiriladi. B oshqacha qilib aytganda, o'yinli didaktik jarayon loyihalanayotgan texnologiyaning asosini tashkil etadi.
5. Didaktik jarayonning ikkinchi bosqichi - bolalarning ta`lim-tarbiya-biluv faoliyatini o'yin tashkil etadi.
6. Uchinchi bosqich - boshqaruv faoliyati funksiyasi ham o`zgaradi.

Agar ta`lim-tarbiya jarayonida tarbiyachi bolalarning bilish faoliyati bosqichida aralashmaydigan bo'lsa tarbiyalash faoliyati didaktik jarayonda ham ustunlik kasb etadi. Umuman, xulqdagi nuqsonlarni o'yinlar orqali korreksiyalash eng samarali usul hisoblanadi. Maktabgacha guruh bolalari uchun o'yinning quyidagi turlari ko'proq ma'quldir. Bular: mavzuli-rolli o'yinlar, o'yin-mehnat, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, vaqt xushlik o'yinlari, sayr tomosha o'yinlari, bayram o'yinlari va b.

Bugungi kunda xulq-atvordagi umumiy munosabatlarni diagnostika va korreksiya qilish uchun yagona nazariya mavjud bo'lmasada, maktabgacha ta'lum yoshidagi bolalar jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni quyidagi xususiy korreksiyalar orqali aniqlash mumkin:

- 1) guruhiy normalar asosida;
- 2) guruhiy tarkiblar asosida;
- 3) guruhdagi m unosabatlar asosida;
- 4) guruhning formal va noformal munosabatlari asosida.

Maktabgacha yoshidagi bolalar xulqidagi nuqsonlarni korreksiyaiash tadbirlarini amalga oshirishda xalq pedagogikasidan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Unda xalqimizning asrlar davomida to'plagan boy tajribalari, ijtimoiy-



siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, m a'naviy, jismoniy yetuklik borasidagi qarashlari, xulosalari lo'nda va donishmandona ifodalangan.

Pedagogik-psixologik diagnostika va korreksiyaning vazifasi bugunning qadriga yetish, kelajakka umid bildirish asosida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib borishni ko'zda tutadi. Uning hayotiyligi, ta'sirchanligi, serqirra va serma'noligi tarbiyaning eng dolzarb masalalarini hal qilishga, umum insoniy yo'nalishlarga, umumbashariy g'oyalarga qaratilganlidir.

Adabiyotlar:

1. Chorieva, D. (2020). IMPROVING STUDENTS'READINESS FOR PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS OF PRESCHOOL CHILDREN. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
2. Chorieva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
3. Чориева, Д. А., & Камалова, Г. А. (2021). РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 161-166).
4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEHNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
5. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
6. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
7. Чориева, Д. А., & Ражбова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
8. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУФУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚҮЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014>



Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.

9. Chorieva, D. A. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO'LLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.

10. Gaynazarova, G. A. (2023). CHARACTERISTICS OF CHILD VIOLENCE AND ITS NEGATIVE CONSEQUENCES. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 32-35.

11. Гайназарова, Г. А. (2023). ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ-ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ СИФАТИДА. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 36-40.

12. Gaynazarova, G. (2022). IJTIMOIY MOSLASHUV VA UNING PEDAGOGIK OMILLARI (QIZLAR MISOLIDA). *Science and innovation*, 1(B8), 2160-2164.



OILADA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Gaynazarova Gulbaxor Abdullayevna

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lism texnologiyasi kafedrasи mudiri,
p.f.f.d (PhD), dotsent v.b*

Rajabboyeva Gulchexra Fazilovna

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lism fakulteti 1-bosqich magistranti

Kirish. Ma'naviyat insonda, eng avvalo, ona suti, allasi, mehri, ta'lism-tarbiyasi bilan ota-bobolarining oqilu dono so'zлari, ajdodlar o'giti va yo'l-yo'riqlari bilan, shuningdek, hayotning boy saboqlari ta'siri ostida shakllanib, rivojlanib, takomillashib boradi. [1.] Bu borada yana ona tilining, xalq an'analari va rasm-rusumlarining, maqollar, matallar, qo'shiq va rivoyatlar, ertaklarning ta'siri katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi hayotimiz va kelajagimiz uchun qobiliyatlar har tomonlama rivojlangan, aqlan yetuk va barkamol, ma'naviy, axloqiy jihatdan kamolga yetgan, tashabbuskor, iste'dodi va tafakkur quvvatini Vatani va millati manfaati hamda taraqqiyotiga xizmat qildirishni o'zi uchun oliv maqsad deb hisoblaydigan fidoyi insonlar juda ham zarur. Buning uchun esa, yoshlarni shu ruhda tarbiyalamog'imiz lozim. Shu nuqtai-nazardan qaraganda bu sohada boy va rangba-rang hisoblangan xalq og'zaki ijodining ahamiyati nihoyatda katta. Demak, milliy ma'naviyatimizning bir debochasi bo'lgan xalq og'zaki ijodi har bir yosh qalbda ona-yurtga muhabbat va sadoqatni qaror topishida, shu muqaddas tuproqqa egadorlik tuyg'ularini shakllantirishda katta o'rinn tutadi. [2]

Ma'lumki, inson ma'naviyati, avvalo, uning odobidan boshlanadi va u orqali har qanday inson aql buyurgan ravishda harakat qilish, faoliyat yuritish, yomon o'ylardan, yomon so'zlardan, yomon ishlardan o'zini saqlashni va ezgu o'ylarni, ezgu so'zlarni hamda ezgu amallarni ro'yobga chiqarishni o'zida namoyon qiladi. Bu borada, ya'ni ota -onaning farzand tarbiyasida ular odobi hamda ularning shaxsiy ibrat-namunasining ta'siri juda kuchli bo'ladi, chunki farzand uchun ota - ona «andoza» vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham oilada farzandlardagi ma'naviy sifatlarning shakllanishida ota - onaga yuksak mas'uliyat yuklanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida halq pedagogikasi ham millatimizning tarixidek uzoq o'tmishga, ya'ni eramizdan oldingi ming yilliklarga



borib taqaladi. Xususan, Zardushtiylar ta'limoti bo'lmish, "Avesto" muqaddas kitobining yuzaga kelishi bunga yorqin misoldir, chunki, xalqimizning savodxonlikka intilishsiz inson ma'naviy- ma'rifiy kamolotini yuksaltirish muammosini hal etib bo'lmaydi. Qadimgi bobokalonlarimiz ko'ziga to'tiyo qilgan "Avesto" muqaddas kitobi faqat diniy qo'shiq, hikoyat va rivoyatlardan iborat bo'libgina qolmasdan, balki ta'lim – tarbiya masalalarini ham o'z ichiga oladigan ilmiy manbadir.

"Avesto"dagi o'lmas g'oyalarning bugungi kundagi axamiyati to'g'risida Birinchi Prezidentimizning quyidagi fikrlari e'tiborga sazovar: "Avesto"ning tub ma'no- moxiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu suz, ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda xozirgi zamon uchun xam bexad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya'ni, ezgu niyat, so'z va ezgu amal birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy idellarimiz bilan naqadar uzviy bog'lik, nechog'lik mustahkam xayotiy asosga ega ekani ayniqsa e'tiborlidir".

Darxaqiqat, "Avesto"da insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishga karatilgan ko'plab ulmas g'oyalalar, pandlar, ibratli fikrlar mavjud. Mazkur yodgorlikdagi ayrim qayd va ishoralar, nom va atamalar, "Bindaxshin"ning aloxida fasllari zardushtiylikning ilk kurtaklari paydo bo'la boshlagan davrlarda ham xozirgi Movarounnaxr va Xuroson xalqlari yashagan mintakalarda ma'naviyat, ta'lim va tarbiya ancha taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

"Tarbiya,- deyilgan "Avesto"da , - xayotning eng muxim (tayanchi) tiryagi bo'lib xisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo

 yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin".

Fitrat intizomlilikning ijtimoiy mohiyatini tariflab, o'zining "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida shunday deb yozadi: "har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muntazzam bo'ladi."

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi sharoitda oilalarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan, sharqona axloqiy xususiyatlar aks etgan ma'naviy-axloqiy munosabatlar qaror topmoqda va oilalarda huquqiy, axloqiy va ruhiy asoslar takomillashib bormoqda. Uyda sog'lom axloqiy muhit, o'zaro muomala madaniyati,



axloqiy tamoyil chuqur ildiz otmasa, oilada bo‘shliq, salbiy holatlarning qaror topishi muqarrardir[4]

«Farzandlarimizda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda ota - onalar oldida quyidagi vazifalar turadi: bola hayotining birinchi kunlaridan oq uning me’yorida o’sishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

bolalarni atrofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga, ularning ishlari, qiziqishlari, manfaatlari bilan hisoblashishga o‘rgatish; bolalarga jonkuyarlik, vazminlik, kamtarlik, umummanfaati bilan hisoblashish ko‘nikmalarini tarkib toptirish;

bolalar nutq madaniyatini shakllantirish, ya’ni ularda odob bilan gaplashish, kattalarga sizlab, ismi - sharifini to‘liq aytib murojaat qilishni, aniq dixsiya bilan, muloyim va ortiqcha imo - ishorasiz so‘zlashga o‘rgatish;

bolada burch hissini vujudga keltirish»

Bu vazifani bajarishda farzandlaringizda quyidagi fazilatlarning shakllanishi muhim ma’naviy asos bo‘ladi: xushmuomalalik; odoblilik; kamtarlik; ziyraklik; jonkuyarlik; dilkashlik; sabrlilik; mas’uliyatlilik; intizomlilik; tashabbuskorlik, xushxulqlik; mustaqillik; mehnatsevarlik; mehribonlik va shu kabilar.

Bunday fazilatlarni oilalarda farzandlarga singdirishga to‘liq imkoniyat va sharoitar mavjud. Ular:

1) Donolar o‘gitlaridan foydalanish. Buning uchun turli - tuman tarbiyaviy hikoyalar va hikmatli so‘zlardan foydalanib farzandlarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkaziladi.

2) Tarbiyaviy masalalar tuzib, ularning yechimlari ichidan optimal variantlarni tanlash. Bunda asosiy g‘oya oilada farzandlarda ma’naviy sifatlarini shakllantirish bo‘lmog‘i lozim.

3) Oilada farzandlardagi ma’naviy sifatlarni tarbiyalashda bolaga ruhiy ta’sir ko‘rsatish metodlaridan foydalanish. Bunda bolalarni qo‘pol munosabatlarga, ichkilikbozlikka, kashandalikka va shu kabi illatlarga nafrat ruhida tarbiyalashga oid pedagogik ta’sir usullaridan foydalanish kerak bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagи bolalarga beriladigan ta’lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari «Maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari»da berilgan.

Bu qayd qilinganlar bog‘chadagi bolalarni jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan rivojlantirishdan, ularning tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta’lim olishga tayyorlashga imkoniyatlar, degan gap. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi



tarbiyalanuvchilarning ma’naviy tarbiyasi asoslari boshlang‘ich ta’limdagi o‘quvchilarning ma’naviy tarbiyasini olib borishga mustahkam didaktik asos va pedagogik omil bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat yengilmas-kuch” Toshkent., “Ma’naviyat” 2008.
2. Abdurahimova D.A. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi asoslari (Xalq og‘zaki ijodi materiallari asosida) Monografiya Toshkent-2016 yil
3. Koshifiy X.V. «Pandnoma». Toshkent, 1994 y, 66-b.
4. Норбошева, М. А. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ОИЛА ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИНИ ЎРГАНИШ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 4(6).
5. Gaynazarova, G. A., & Bahronovna, I. Z. (2023). MEDIASAVODXONLIKNING YOSH AVLOD MA’NAVIYATIGA TA’SIRI. *WORLD OF SCIENCE*, 6(11), 123-128.
6. Гайназарова, Г. А. (2023). ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ-ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ СИФАТИДА. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 36-40.
7. Gaynazarova, G. A. (2023). CHARACTERISTICS OF CHILD VIOLENCE AND ITS NEGATIVE CONSEQUENCES. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 32-35.
8. Гайназарова, Г. А. (2023). ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ-ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ СИФАТИДА. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 36-40.
9. Gaynazarova, G. (2022). IJTIMOIY MOSLASHUV VA UNING PEDAGOGIK OMILLARI (QIZLAR MISOLIDA). *Science and innovation*, 1(B8), 2160-2164.
10. Gaynazarova, G. A. (2023). OTA-ONA QARAMOG ‘IDAN MAHRUM BO’LGAN BOLALAR MA’NAVIYATIDA IJTIMOIY MUHITNING TA’SIRI. " GERMANY MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
11. Abdullayevna, G. G. (2023). IMPORTANCE OF PICTURES BASED ON FAIRY TALES IN SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. *Academia Science Repository*, 4(6), 289-292.
12. Gaynazarova, G. A., & Olimjonova, N. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY MOSLASHUV KO’NICKALARINI SHAKLLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 65-72.
13. Sobirovna, T. Z. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIY-AXLOQIY TARBIYASIDA OILANING ROLI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 34(2), 30-32.
14. Sobirovna, T. Z. (2023). IJTIMOIY PEDAGOGNING OILA BILAN ISH YURITISHI SHAKLLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 34(2), 33-34.



КЛАСТЕР ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КОНКУРЕНТНЫЙ МЕХАНИЗМ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ

Омонхонова Музаямхон Сарваровна

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низомия,
студентка 2 курса специальности педагогика и психология дошкольного
образования.*

Аннотация: Кластер дошкольного образования приводит к инновационному развитию сетевой системы. Известно, что инновационное развитие любой отрасли не развивается без соответствующей научной основы.

Следует отметить, что кластер дошкольного образования как компонент системы непрерывного профессионального образования укрепляет связи между образовательными учреждениями разного уровня, повышает качество производственной практики обучающихся, повышает эффективность образовательного процесса, обеспечивает системность и интеграцию. в системе дошкольного образования позволяет реализовать процессный принцип.

Ключевые слова: организация дошкольного образования, педагог, воспитанник, коллектив, кластерная сеть, механизм.

Кластер дошкольного образования – это система образования, взаимного обучения и инструментов самостоятельного образования в инновационной цепочке наука-технологии-бизнес, основанная преимущественно на горизонтальных связях внутри звена. При этом образовательный кластер представляет собой совокупность социальных институтов, связанных вертикальными отношениями по подготовке «обычного человека» и горизонтальными отношениями по обмену технологиями для производства указанного продукта. Таким образом, кластер дошкольного образования представляет собой взаимозависимый комплекс образовательных учреждений, объединенных признаком принадлежности к сети и отношениями сотрудничества с предприятиями сети.

Непрерывность дошкольного образования как специфического вида деятельности человека, теоретические и практические аспекты этой преемственности, связанные с предшествующим обобщенным опытом и знаниями его применения для получения конкретного продукта деятельности,



представляют собой интегративное образование системы непрерывного дошкольного образования, реализован в обучающем кластере со структурой lim.

Эффективное развитие кластера дошкольного образования зависит от следующих условий и факторов, влияющих на его успешность:

наличие технологической и научной инфраструктуры, отвечающей спросу;

психическая готовность участников к взаимному сотрудничеству;

мощные информационные технологии, обеспечивающие обмен информацией между субъектами кластера.

Помимо них необходимо упомянуть следующее:

наличие четкой стратегии развития образовательного кластера на разных уровнях;

умение использовать эффективные механизмы управления и реализации пилотных программ и проектов;

успешная реализация научной и практической работы, связанной с кластеризацией образования;

адаптация существующей технологической и научной инфраструктуры к процессам с целью достижения в них эффективности;

добраться до полного понимания этого инновационного процесса путем проведения рекламных мероприятий в субъектах образовательного кластера, дать им возможность осознать, что сотрудничество приносит много пользы;

разработка продуманной стратегии развития кластера, методов и способов успешного управления проектами;

создание возможности быстрого обмена информацией между участниками и т.д.

Поэтому успешная реализация научно-практической работы, связанной с кластеризацией дошкольного образования, адаптацией к этому процессу существующей технологической и научной инфраструктуры с целью достижения эффективности в них, осуществление пропагандистско-агитационной деятельности по субъектам, их полноценная реализация этого инновационного процесса, чтобы достичь их понимания, дать возможность осознать, что сотрудничество приносит много пользы, разработать продуманную стратегию развития кластера, разработать методы и способы успешного управления проектами, создать возможность быстрого обмена информацией между участниками – залог успеха кластера. Но это очень



масштабный организационный процесс, требующий много времени и конкретной целенаправленной деятельности.

Н.Н.Давидова, Б.М.Игошев занимаются кластеризацией образования [4; стр. 75], по мнению Г. Е. Захидовой, четкие результаты развития кластера будут видны через 5-7 лет.

Кластерный подход к образованию позволяет органам управления предоставить определенные инструменты для эффективного взаимодействия внутри системы, лучше понять проблемы, спланировать научную основу развития на разных уровнях. Все это подтверждает мнение о том, что образовательный кластер – это процесс, имеющий большое научное и практическое значение. Политическая, экономическая, социальная и технологическая значимость образовательного кластера возрастает, создавая среду и условия, обеспечивающие конкурентоспособность системы.

Повышение компетенций участников образовательного процесса на основе кластерного подхода к дошкольному образованию принимает эффективные формы на основе кластерной структуры взаимодействия высших и общеобразовательных учреждений, расположенных на одной региональной территории. Его деятельность осуществляется путем разработки и реализации вариативных образовательных планов, программ и проектов, разработанных во взаимном сотрудничестве субъектов, обеспеченных правовыми основаниями. При организации кластерной структуры на основе взаимного сотрудничества непрерывного образования важно определить механизмы раздельной и комплексной деятельности поставщиков социальных заказов, отвечающих потребностям потребителей и ожидаемым результатам (см. рисунок 1).

Для реализации кластерного подхода в дошкольном образовании важной задачей является создание кластерной среды в сфере образования. Кластерная среда реализуется через совместную учебную программу и учебную программу, учитывающую общие цели и конкретные интересы всех видов образования. В образовательном кластере основным требованием потребителя является готовность обучающихся к практической деятельности наряду с теоретическими знаниями по образовательным программам, возможность сразу приступить к работе в следующем виде образования или производства, а также уметь применить их. Знания, полученные в образовательном учреждении при решении определенных задач, проявляются в умении. С. М. Черданцев, проводивший исследования в этом направлении, говорил, что



такие навыки должны формироваться в ходе практики, которая, с одной стороны, является неотъемлемой частью образовательного процесса, позволяющей обогащать профессиональные знания, а с другой стороны, в дальнейшем, будущего специалиста. Также может быть «испытательный срок», чтобы оценить, соответствует ли работа предъявляемым требованиям[5; стр. 10], заключает, что.

Список использованной литературы:

1. Mukhiddinova, M. (2023). ABOUT THE PRAGMATICS OF DEACTIVE PRONOUNS IN THE KOREAN LANGUAGE. *SPAST Abstracts*, 2(02).
2. Mukhiddinova, M. (2021). A question about pronouns in a Korean sentence. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 208-211.
3. Dek-Khenovna, K. N., & Batirovna, M. M. (2019). To the study of the role of pronouns and pronominal words in Korean language (on elementary level teaching material). *Вестник науки и образования*, (19-1 (73)), 47-52.
4. Mukhiddinova, M. PRONOUNS IN COMMUNICATIVE SENTENCES IN KOREAN. *ТОШКЕНТ-2021*, 52.
5. Ёзиева, У., & Абдиева, Ф. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. Общество и инновации, 2(11/S), 111-114.
6. Abdieva, F. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Science and innovation*, 1(B8), 2154-2156.
7. qizi Abdiyeva, F. F. (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV MADANIYATINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 397-400).
8. Abdieva, F. (2022). IMPROVING THE MANAGEMENT CULTURE OF DIRECTORS OF PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS. *Science and Innovation*, 1(8), 2154-2156.
9. Akramova, D. (2022). ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS-PSYCHOLOGISTS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(8), 322-326.
10. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ



ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(8), 19-23.

11. Akramova, D. E., & qizi Azimova, X. D. (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).
12. Akramova, D. E., & qizi Suvonqulova, M. D. (2023, January). RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-396).
13. Akramova, D. E., & qizi Ne'matova, S. S. (2023, January). BO 'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI OMILLAR. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 390-392).
14. Akramova, D. E., & qizi Axmedova, N. B. (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 386-389).
15. Акрамова, Д. Э., & Бобомуродова, О. Б. (2023, January). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 352-354).
16. Акрамова, Д. Э., & қизи Тожихонова, Л. У. (2023, January). ТАРБИЯ-ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ҲОДИСА ВА ЖАРАЁН СИФАТИДА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 375-377).



ВОСПИТАНИЕ ВЕРЫ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ В СТРАНЕ- МАТЕ И ВОЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Равшанова Махира Дильмуродовна

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами,
студентка 2 ступени факультета педагогики и психологии дошкольного
образования*

Аннотация: В данной статье даны рекомендации по дальнейшему развитию интереса детей дошкольных образовательных организаций к нашей Родине и военному образованию.

Ключевые слова: организация дошкольного образования, воспитатель, воспитанник, Родина, военное образование, физическое воспитание, спорт, здоровый образ жизни.

За последние годы в результате реформ произошло много положительных изменений в сфере образования, восстановлена наша национальность, открыты новые страницы наших материальных и духовных ценностей. В то же время наше правительство и народ, понимая, что изучение нашего прошлого культурного наследия является одним из актуальных вопросов, необходимых для развития общества и науки, начали восстанавливать проверенные временем и полезные стороны национальных ценностей для человечества. Из них культурное наследие, оставленное нашими предками, и педагогика узбекского народа содержат замечательные, передовые идеи, которые будут нужны во все времена.

Мы верим, что только человек, способный поставить честь страны превыше всего, гордящийся своим языком, религией, историей, национальными ценностями, может внести достойный вклад в развитие Узбекистана, и в этом отношении, содержание нашей работы в области духовности: «К Родине, любовь к Родине, гуманные чувства — древняя черта, въевшаяся в кровь нашего народа. Говорят, что вопрос бережного сохранения и дальнейшего совершенствования этих уникальных человеческих качеств, воспитания наших детей достойными сыновьями и дочерьми свободного и демократического Узбекистана должен стать основным направлением нашей работы в сфере духовности.



Barcha motivlar ham o‘quv faoliyatiga birday ta’sir qilmaydi. Bittasi yetakchi motiv, qolganlari esa ikkinchi darajali bo‘lishi mumkin. Inson hayoti faoliyatdan iborat bo‘lib, barcha psixik jarayonlar va hodisalar ketma-ket ravishda motiv bilan bog‘liq holda yuz beradi. Motiv, odatda, insonni muayyan faoliyatga undovchi, yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi kuch sifatida yuzaga keladi.

Q.Turg‘unov “Motivatsiya shaxsning nima uchun ma’lum vaqtida boshqa fikr va harakatlarni emas, faqat shu fikr va harakatni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishi, tushuntirib berishidan iborat mantiqiy operatsiyadir”-degan ta’rifni beradi Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash ijtimoiy fenomendir. Chunki ular maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ham ijtimoiy xissiy ko‘nikmalarni shakllantirishlari lozim. Tadqiqot davomida motivatsiyani shakllantirishning muhim omillari aniqlandi. Ularga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy muhit, ta’lim tashkilotlari hamda ijtimoiy institutlar;
- ta’lim beruvchi va tengdoshlari;
- talabaning jamiyatdagi mavqeい va intilishi;
- o‘quv tarbiyaviy faoliyat.

Kasbiy motivatsiya sub’ektiv va ob’ektiv qismlardan tashkil topadi va ularga moddiy va nomoddiy omillar ta’sirini kuzatish mumkin. Kasbiy motivatsiyaning shakllanishida omillarning o‘zaro ta’sir jarayoni yuz beradi. Bo‘lajak tarbiyachilar ijtimoiy buyurtmani bajaruvchi mutaxassis sifatida tayyorlanadi. Kasbiy faoliyat kasbga yo‘naltirishga ham bog‘liq bo‘lib, bunda talabalarning moyilligi, ehtiyoji va istaklari muhim ahamiyatga ega.

Talabalar kasbiy motivatsiyasi quyidagi yo‘nalishlarda shakllanadi:



1. Bilishga bo‘lgan qiziqish:

- yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish;
- muammoli vaziyatlar yechimini topish;
- qo‘sishimcha bilimlarni o‘zlashtirish, pedagog-tarbiyachi sifatida o‘zini takomillashtirishning ijtimoiy dasturini tuzish.

2. Ijtimoiy motivatsiya:

- kengaytirilgan ijtimoiy motivlar: burch va mas’uliyat hissi;
- bilim olishni ijtimoiy ahamiyatga egaligini tushunish;
- ijtimoiy yoki pozitiv motivlar: atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga intilish, ularni qo‘llab-quvvatlash;
- ijtimoiy hamkorlik motivlari: boshqa odamlarga turlicha ta’sir ko‘rsatish usullariga yo‘nalganlik.

3. O‘quv motivatsiyasi:

- maqsadli faoliyatni tashkil etish;
- o‘quv jarayonida erkin va mustaqil harakat qilish;
- tashqi motivatsiyani ichki motivatsiyaga aylantirish;
- motivatsiyaning internal va eksternal darajalarini namoyon etish.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar asosida motivatsiyaning shakllanishi bevosita shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsiy istak va xohishlari zamirida paydo bo‘ladi deb xulosa qilish mumkin. Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ularning qiziqish va maylini inobatga olish zarur. Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglar motivatsiyasining shakllanishi ularda kasbiy kompetentsiyani ham rivojlantiradi. Ular orasida o‘zaro bog‘liklikni ta’minlanishi pedagogik oliy ta’limda bo‘lg‘usi tarbiyachi faoliyatini muvaffaqiyatli bo‘lishiga nisbatan ishonchni oshiradi. Hamda talabalarda muvaffaqiyatga erishishda mas’uliyat hissini ham rivojlanib boradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Абдуллаева, Д. Р., & Тешабаева, З. С. (2023). ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ-ПЕДАГОГОВ. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 714-717.

2.Рахимов 3.Т. Таълим жараёнида талабалар ўқув-билиш компетентлигини ривожлантириш. Замонавий таълим.2020. №3-3-106.



3. Содиқова Ш.А. Мактабгача таълим йўналиши талабаларини ижтимоий педагогик фаолиятга тайёрлаш: пед.фунд.ном. ...дисс. — Тошкент, 2010. — 139 б.89

4. Содиқов Ҳамид Махмудович Бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив-нутқ маданиятини ривожлантириш: пед.фунд.фал.док. ...дисс. — Тошкент, 2020. — 234 б.

5. Teshabayeva, Z. S. (2021). PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRESCHOOL TEACHERS IN THE FIELD OF CONTEXTUAL LEARNING TECHNOLOGIES. Academic research in educational sciences, 2(2), 1360-1367.

6.Ibraimov, X., & Gaynazarova, G. (2023). THE CONTENT OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF INDIVIDUAL EDUCATION. Science and innovation, 2(B12), 330-333.



BOLALAR MOSLASHUV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGNING O'RNI

*Qo'qon universiteti "Ta'lim" fakulteti
dotsenti, p,f,f,d(PhD)*

Teshabayeva Zamira Sobirovna
*Qo'qon universiteti "Ta'lim" fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi
Shamsiddinova Orastaxon Nizomiddin qizi*

Annotation

Ushbu maqolada shaxsning ijtimoiy-axloqiy rivojlanishi hamda jamiyatga ijtimoiylashuvida maktabgacha ta'lim tashkilotining tutgan o'rni va funksiyalari haqida tushunchalar berib o'tilgan.

Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogning o'rni haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Ta`riflab o'tilgan tafsiflar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglarining ish faoliyati tajribalarini o`rganish tufayli yoritildi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, pedagog, ijtimoiylashuv, Maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyachi, faoliyat, tajriba, ish faoliyati, ko'nikma, ijtimoiy moslashuv, rivojlantirish, ijtimoiy-axloqiy rivojlanish, tushuncha, jamiyat.

Bugungi kunda shaxs shakllanishi uning ijtimoiylashuviga doir tadqiqotlar ta'lim muammolari bilan bog'liqlikda amalga oshirilib, uning turli jihatlari o'rganilib, babs doirasi chuqurlashib, kengayib bormoqda. Insonning madaniy-ijtimoiy shartlangan xulq-atvori bilan bog'liqlikda ijtimoiy intellekt bilan bog'liq qator ilmiy izlanishlarda tadqiq etilmoqda.

Bolalik inson hayotidagi o`ziga xos davr bo`lib, bu davrda bola jamiyatning an`analari, qadriyatlar, madaniyatini qabul qiladi, bilimlarni egallaydi va shaxs sifatida shakllanib boradi. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, maktabgacha ta'lim tizimi, bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzlucksiz ta'lim turi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limni samarali tashkil qilish uchun avvalo bolaning psixologik holatini, uning ijodiy qolbiliyatlarini hamda aqliy jihatlarini



inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalada quyidagi jihatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi: jismoniy, ijtimoiy va axloqiy, intellektual va kognitiv, estetik va mehnatsevarlik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual va kognitiv tarbiyalash muammolarini hal qilishda shuni esda tutish kerakki, bu yerda nutqni rivojlantirish, bolaning fikrlashi, uning bilim qiziqishlari va qobiliyatlarini shakllantirish yetakchi o'rinni egallaydi.

Bolalarni ijtimoiy-axloqiy tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalari:

- bolalarda milliy qadriyatlarga, inson tomonidan yaratilgan dunyoga, o'z oilasiga, insoniy munosabatni shakllantirish;

- ijtimoiy tuyg'ularni, hissiy sezgirlikni, empatiyani, odamlarga nisbatan g'amxo'rlik va yordam hissini rivojlantirish;

- tengdoshlar bilan do'stona munosabatni va hamkorlikni rivojlantirish;

- kattalar va tengdoshlari bilan muloqot madaniyatini tarbiyalash;

- o'z-o'zini anglash, bolaning ichki dunyosi va turli millat vakillariga nisbatan bag'rikenglik tuygularini rivojlantirish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining roli muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy faoliyat tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlantrishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Pedagog bolalarga ularning yosh hususiyatidan kelib chiqib o'quv-tarbiyaviy faoliyatlar tashkil qiladi. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalshtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi.

Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg'ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi:

- pedagog guruhda shunday muhit yaratadiki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qiladi;

- pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, maqsadga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi;

- pedagog har bir bolada zarurat tugilganida tarbiyachidan yorda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lisligha yordam beradi;

- pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtiradi, o'z kasbiy faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi;



-pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi hamda o'z ishini teng sheriklik asosida quradi.

Bir so'z bilan aytganda mактабгача yoshdagi bolalar moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv-tarbiyaviy faoliyatning mazmuni va uning qay darajada tashkil etilganligi katta ahamiyatga ega. Chunki to'g'ri tashkil etilgan faoliyat davomida bolaning aqliy, jismoniy, axloqiy rivojlanishi va atrofdagi kattalar bilan munosabati takomillashib boradi. Shuning uchun ham bolalar ijtimoiy faolligini bilish, bolada foydali odatlarni shakllantirish, ijobiy xarakter belgilarini rivojlantirishda nafaqat ota-onalar balki tarbiyachi-padagoglarning o'mi beqiyosdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tarbiya / ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi:

M.N.Aminov. Mas'ul muhar. A.Majidov. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

2. Z.S.Teshabayeva “Bolangiz bogchaga tayyormi” uslubiy qo'llanma T:

MALIK PRINT 2020 y

3. Sobirovna, T. Z. (2023). Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi shakllari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 34(2), 33-34.

4. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

5. SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Bahtiyor oila” uslubiy qo'llanma T: “HIOL- NASHR” 2022y 355 b

6.Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. - T.: «Ma'naviyat», 2013.



SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

*CHDPU “Maktabgacha ta’lim” fakulteti
dotsenti, p,f,f,d(PhD) Teshabayeva Zamira Sobirovna
CHDPU ‘Maktabgacha ta’lim’ yo’nalishi
talabasi Chorshanbiyeva Sevinch Odil qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining o’rni, bolalarni ma’naviy tarbiyalash, emotsiyon olamini boyitish, ijodga e’tibor va qiziqish uyg’otishdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar bayon etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sahnalashtirish faoliyatlarini to’g’ri tashkil etishda tarbiyachi-pedagog qo’llashi lozim bo’lgan texnologiyalar va metodlar haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: sahnalashtirish, bola, ijodiy, texnologiya, faollik, mustaqillik, variativlik, emotsiyonal, go’zallik, san’at.

Maktabgacha yoshdagi bolalar sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o’rgatish faoliyatida ishtirok etar ekan, obrazlar orqali atrof-olam bilan tanishadi, so’z zahirasi ortadi, ijro etayotgan roli bolaning boshqa qahramonlar (tengdoshlari) bilan muloqotga kirishishga undaydi, ular o’ylashga, tahlil qilishga, xulosalar chiqarishga harakat qiladi.

Sahnalashtirish faoliyati bolalarda nutq ravonligini shakllantiradi, intellektual va badiiy-estetik tarbiya bilan bog’liq k’oplab pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi. Shuningdek bolalarda his-tuygu rivojlanadi, ular ijro etgan rollari orqali ma’naviy jihatdan shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Ertaklarni sahnalashtirish jarayonida personajlarga hamdard bo’lish va voqealarni ular bilan birga his qilishga ko’mak beradi. Sahnalashtirish faoliyati bolalarning birgalikdagi faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Bastakor D.B.Kabalevskiy san’atning bolalar uchun ahamiyati haqida shunday fikr bildiradi: “Maktabgacha yoshdagi bolalarda san’at nafaqat go’zallik hislarini, balki odob va axloq tushunchalarini ham paydo qiladi. Bolalarda o’chmas taassurot qoldiradi. Sahnalashtirish faoliyati qanchalik boy va mazmunli bo’lsa, bolalarda dunyo qarashning rivojlanishi shunchalik oson va muvaffaqiyatlari kechadi”.



Sahnalashtirish faoliyati bolaga muammoli vaziyatlarni bilvosita, ya’ni personaj rolini ijar o etish orqali yechishga imkon beradi. Bolalarda o’zaro munosabatlardagi qiyinchilik, o’ziga ishonmaslik, jur’atsizlik kabi sifatlarni yengib o’tishga yordam beradi.

Maktabgacha yosh davrida bolalar bilan sahna faoliyati quyidagi uchta maqsadni amalga oshiradi:

- nutq va ijro faoliyati ko’nikmalarini rivojlantirish;
- ijodkorlik muhitini yaratish;
- bolalarni ijtimoiy-emotsional rivojlantirish.

Sahnalashtirish faoliyati nafaqat asarning matni bilan tanishtirish, balki ifodali nutq, imo-ishora, mimika, harakat, kastyum, sahna kabi tushunchalarni shakllantiradi.

Asar mazmunini tushunib olish, mantiq va voqealar ketma-ketligini tizib chiqish yanada takomillashib, nutqiy muloqot elementlari rivojlanishiga yordam beradi (mimika, jest, pantomimika, intonatsiya, ovozning modulyatsiyasi) va ijtimoiy xulq-atvor shakllanishiga imkon beradi.

Sahnalashtirilgan faoliyatda bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachi quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanadi:

- Individual imkoniyatlarga asoslangan o’qitish texnologiyasi;
- O’yin texnologiyalari;
- Integrativ (uyg’unlashgan) ta’lim texnologiyasi;
- Oila bilan hamkorlik texnologiyasi;
- Muammoli vaziyatlarga yechim topishga o’rgatish texnologiyasi;

Ijodiy izlanishni tashkil etishda tarbiyachiga bolalar bilan quyidagi o’yinlarni tashkil etish taklif etiladi:

- Audio yozuvlarni tinglash;
- Xo’r yoki individual kuylash;
- Telefonda so’zlashuv;
- Chizish va applikatsiyalarning noan’anaviy usullari;
- Ertaklardan rasmlar tayyorlash;
- Relaksatsiya;
- Musiqaterapiya.

Sahnalashtirilgan ijodiy faollikda bolalar nutqini rivojlantirish uchun tarbiyachi quyidagi mashqlardan foydalanishi mumkin:

- Artikulyatsiya mashqlari;



- Tez aytishlar;
- Plastik etyudlar;
- Mimikali etyudlar;
- Topishmoqlar;
- Tasavvurdagi mashqlar.

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash joizki,maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan sahnalashtirilgan o'yinlar bolalar shaxsini shakllanishida muhim pedagogik vosita hisoblanib, bu jarayonni to'gri tashkil etish tarbiyachidan ko'plab bilim va mehnatni talab qiladi.

O'quv-tarbiyaviy faoliyat jarayonida pedagog bolalarning ma'nnaviy ehtiyojlarini, har tomonlama qondirishga yo'naltiradi. Bolalarni teatr san'ati vositalari bilan axloqiy-estetik tarbiyalash ularni axborot qabul qilish, tushunish va harakatlarni izohlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi ifodali til bilan tanishishiga ko'maklashadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Teshabayeva Z. S. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish / Darslik T.: MALIK PRINT, 2022. 72–74 b.
2. Усова А. П. Обучение в детском саду / Под.ред. А. В. Запорожца. –3 еизд. Испр -М.: Просвещение, 1991. – 168 с
3. Ibraimov, X., G Gaynazarova, g. (2023). the content of preparing students for professional activity in the process of individual education. science and innovation, 2(b12), 330-333.
4. Teshabayeva, Z. S. (2021). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH OYIN FAOLIYATI SHAKLLARI, TURLARI, ULARNI TASHKIL ETISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 268-271.



TARBIYA SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING OMILI SIFATIDA.

*ChDPU "Maktabgacha talim metodikasi"
kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)*

Teshabayeva Zamira Sobirovna

ChDPU "Maktabgacha talim metodikasi" kafedrasi magistri

Abdulatipova Mehribon Qahramon qizi

El pochta: abdulatipovamehribon@gmail.com

Tel: +99895-098-50-98

Annotasiya: Mazkur maqolada shaxs ijtimoiylashuvida tarbiyaning tutgan o'rni hamda o'ziga hosliklari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ijtimoiy tarbiya va oila tarbiyasining uzviyligi, ustivorligi bayon etiladi.

Shuningdek tarbiyada ijtimoiy pedagogik mexanizmlarning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, ijtimoiylashuv, oila, mexanizm, shaxs, nazariya, metod, ijtimoiy ta'lif, pedagogik jarayon, xarakter.

Tarbiya —shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo'lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora tadbirlar yigindisidir.

Tarbiya tufayli inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar avlodlardan-avlodlarga o'tib boradi. Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasiga keng va tor ma'nolarda izohlanadi. Keng ma'noda tarbiya faqatgina oila, maktabgacha ta'lif tashkiloti, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun jamiyat uning yetakchi goyalari, adabiyor, san'at, kino, radio, televide niye va boshqalarni o'z ichiga oladi. Keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ta'lif va ma'lumot olishni ham nazarda tutadi.

Tarbiya - bolalik davrida amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, bolani jamiyat tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar, me'yorlari, normalarni hurmat qilishga o'rgatadi.

U quyidagi asosiy vazifalarni hal qiladi:

- shaxsni jamiyatga integratsiya qiladi;
- ijtimoiy ijobiy rollarni o'zlashtirishiga yordam beradi;
- moddiy va ma'naviy boyliklarni avloddan-avlodga yetkazadi;
- jamiyat rivojlanishda davom etadi.

Ijtimoiy tarbiya maxsus muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayon hisoblanib, tarbiya jarayonida ijtimoiy tarbiya bilan birgalikda oila tarbiyasining uzviyligi va ustivorligi muhim hisoblanadi.



Aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy me'yorlar shakllanadi. Oila omili insonga butun umri davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o‘z-o‘zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishiga yordam beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo‘sish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, bola kishilik jamiyatining sog'lom va faol a’zosi bo’lib yetishishi uchun insoniyat hayoti va mehnati jarayonida ko‘p asrlardan buyon to’plab kelinayotgan bilimlarni egallab borishi, kattalar tarbiyasida bo’lmog’i lozim.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Tarbiya / ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas’ul muhar. A.Majidov. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
2. Sobirovna, T. Z. (2023). Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi shakllari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 34(2), 33-34.
3. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
4. SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Bahtiyor oila” uslubiy qo’llanma T: “HIOL- NASHR” 2022y 355 b
5. Xudoyqulov X.J. Tarbiyaviy ishlar metodikasi . T. TTYMI 2007 yil



BOLALAR MOSLASHUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI

*Qo'qon universiteti "Ta'lim" fakulteti
dotsenti, p,f,f,d(PhD)*

*Teshabayeva Zamira Sobirovna
Qo'qon universiteti "Ta'lim" fakulteti
'Maktabgacha ta'lim' yo'nalishi
talabasi Umarjonova Nilufar Otobek qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolaning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishda oilaning o'rni haqida so'z boradi. Maktabgacha yoshdagi davrida bolalar ijtimoiylashuvida oilaning tarbiyaviy salohiyati, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o'zaro hamkorlik ish shakllari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, bola, ijtimoiylashuv, tarbiya, hamkorlik, moslashuv ko'nikmalarini.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida nikoh va qon-qarindoshlikka asoslangan ijtimoiy institutdir. Jamiyat va davlat oilaviy munosabatlarga umuminsoniy va milliy qadriyatlar joriy etilishini ta'minlaydi hamda otalik, onalik va bolalikni himoya qiladi.

Shaxsning insonparvarlik, mehr-muruvvat, hamdardlik, muomala madaniyati, burchi va sadoqat, minnatdorchilik kabi bir qator insoniy fazilatlar shakllanishida hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori samarali natija bermaydi.

Bolalar moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishda oilaviy tarbiya hamda ijtimoiy tarbiyaning hamkorlik aloqasini mustahkamlash maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog hodimlarining muhim vazifalaridan biridir.

Bola kunning asosiy qismini maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazsa ham, inson kamoloti uchun eng muhim bo'lgan omillardan biri tarbiyaning tamal toshi oilada qo'yiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy maqsadi bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashda ham oila hamkorlik ish shakllarini to'g'ri yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan hamkorlik ishlarining ikki asosiy shakli mavjud: jamoaviy va individual.



Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan hamkorlik ishlarining jamoaviy shakllariga quyilagilar kiradi: pedagogik ma'ruzalar; pedagogik majburiy o'qish; yillik ilmiy-amaliy konferensiya; ochiq eshiklar kuni; ota-onalar kuni;

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan hamkorlik ishlarining individual shakllariga bo'yicha quyidagi tavsiyalar keltiramiz:

1. Bolalarning oila a'zolari haqida yaqindan bilib oling.

Tarbiyalanuvchilarning oilaviy shart-sharoitlari bilan yaqindan tanishish pedagog-tarbiyachilarning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2. Ota-onalar bilan suhbatlashish uchun qulay vaziyat yarating. Pedagoglar do'stona muloqot uslublaridan foydalanib, bolalarning qobiliyatlari to'g'risida optimistik fikr bildirishi, ota-onalarga bolalar ehtiyojlarini bilib olishga yordam beradigan munosabatda bo'lishlari lozim.

3. Ota-onalardan farzandlarini qo'llab-quvvatlash strategiyasi haqida so'rang. pedagoglar ota-onalarni ota-bobolari va madaniyati haqida suhbatlashish uchun MTTga kelishga taklif qilib, ota-onalardan bolalarining qobiliyatlari va qiziqishlari to'g'risida anketalarni to'ldirishlarini so'rashlari mumkin.

4. Ota-onalarga bolalarning yoshiga doir muammolari haqida maslahatlar bering. Pedagog ota-onalarga yoshga bogliq xususiyatlar bolalar rivojlanishining tabiiy usuli ekanligini va konstruktiv tarzda hal qilinishi mumkinligini tushunishga yordam berishlari mumkin.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelmagan ota-onalarga turli aloqa shakllari orqali murojaat qiling. (yozma aloqa, telefon orqali suhbatlar , elektron pochta va veb-saytlar). Pedagoglar bolalar ishlarining videofilmlarini yoki bogchaning maxsus tadbirdarda bolalarning ishtiroki haqidagi fotosuratlarni uyga yuborishlari, shuningdek, bogchadagi eng muhim voqealar bilan guruh yangiliklarini tayyorlashlari mumkin.

6. Oilalarga tashrif buyuring. Uyga tashrif buyurish-bu ota-onalarning uyda, bolalar bilan bo'lgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashning nisbatan keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Biroq qanday vaqt ham oilaga tashrif buyurish uchun qulay emas. Oilaga tashrif buyurish oldindan kelishilgan holda amalga oshirilishi zarur.

7. Ota-onalarga ular uchun mavjud bo'lgan xizmatlar to'grisida xabar bering. Qiynalayotgan ota-onalar ba'zida o'zlari olishlari mumkin bo'lgan imtiyozli jamoat xizmatlari haqida bilishmaydi. Pedagoglar ota-onalarga foydali xizmatlar haqida maslahat berishlari mumkin.



Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki oiladagi ijtimoiy pedagogik faoliyat tizimli yondashuvga asoslangan taqdirdagina yuqori samarali bo`lishi mumkin.

Bolalar ijtimoiy faolligini oshirish, bolada foydali odatlarni shakllantirish, ijobjiy xulq-atvor belgilarini rivojlantirishda ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarning o'rni beqiyosdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
2. Sobirovna, T. Z. (2023). Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi shakllari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 34(2), 33-34.
3. SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Bahtiyor oila" uslubiy qo'llanma T: "HIOL- NASHR" 2022y 355 b
4. Ibraimov, X., G Gaynazarova, g. (2023). the content of preparing students for professional activity in the process of individual education. science and innovation, 2(b12), 330-333.



TARBIYA-INSON KO'ZGUSI

*CHDPU “Maktabgacha ta ’lim” fakulteti
dotsenti, p,ff,d(PhD) Teshabayeva Zamira Sobirovna
CHDPU “Maktabgacha ta ’lim” yo ’nalishi
talabasi Olimova Zamira Mingyashar qizi*

Annotation

Ushbu maqolada, tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli haqida ma’lumotlar bayon etiladi. Oilaning tarbiya ob’yekti sifatidagi o’rni va shaxs shakllanishida tarbiyaning samarali usullarini qo’llash haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so’zlar: Oila, bola, tarbiya, mehr, yaxshilik, shaxs, pedagogik jarayon, maqsad, omil, qadriyat, usul.

Shaxs shakllanishda ta’sir etuvchi omillar: muhit, ta’lim va tarbiya, irsiyatning ahamiyati muhim bo’lib, bularning ichida tarbiya bizning hayotimizga eng katta ta’sir etuvchi kuchdir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyos bo’lib, insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va uni ko’nikmaga aylantirib borish lozim.

Pedagogik adabiyotlarda tarbiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi:

“Tarbiya-har bir insonning hayoti yashash jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiyo ko’nikmasini o’zgalarga berish jarayonidir”

Tarbiya jarayonida insonning odatlari, xulq-atvori, dunyoqarashi, his-tuyg’ulari shakllanadi. Shuningdek shaxsning jamiyatda munosib o’rnini topishi, ijobiyl maqomlarga ega bo’lishi tarbiyaga bog,liq.

Xalqimiz qadimdan o’zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo’yish,qornini to’qustini but qilish o’z yo’lida, lekin ularni yoshlik chog’idan boshlab ta’lim-tarbiyali,axloq-odobli,yuksak ma’naviyatli qilib voyaga etkazish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Bahtiyor oila” kitobidagi quyidagi fikrlarini aytish joiz: „Tarbiya” so’zi arabcha „robba” so’zidan olingan bo’lib, o’sirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma’nolarini bildiradi”.



“Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq, davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga yetadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo‘ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi” –deb ta’kidlaydilar hazrat Muhammad Yusuf.

Shuning uchun ham Islomda bola tarbiyasiga alohida e’tibor beriladi. Bola tarbiyasi bo‘yicha mutaxassislarimiz: “Bolaning tarbiyasini tug‘ilishi bilan boshlash kerak”, deyishadi va uni uch qismga ajratadilar:

- tarbiyaning bir qismi bolaga odob o‘rgatishdir;
- tarbiyaning ikkinchi qismi bolaga ta’lim berishdir;
- tarbiyaning uchinchi qismi bolaga jismoniy tarbiya berishdan iborat.

Oila hayotining bosh muddao va maqsadi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasining bosh maktabi esa ota-onaning o’zaro munosabatidir degan edi, buyuk pedagog olim V.A.Suxomlinskiy o’zining „Bolalarga jonim fido”asarida

Tarbiyaning quyidagi samarali usullari bo’lib, bular:

- so‘z orqali tarbiyalash usuli;
- ko‘rgazmalilik usuli;
- ibrat-namuna usuli.

Har bir bola qalbining o’z tori bor, u o’z maqomida yangraydi.... Uni to’g’ri chala bilish tarbiyasiga bog’liqdir.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, ota-onsa o’z farzandini kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e’tiborli bo’lishi lozim, chunki ota-onaning farzandiga qilgan hadyalari ichida eng yaxshisi unga bergan ta’lim-tarbiyasidir.

Adabiyotlar ro’yhari:

1. SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Bahtiyor oila” uslubiy qo`llanma T: “HIOL- NASHR” 2022y 355 b
2. Z.Ismoilova.Tarbiyaviy ish metodikasi.T.; „Istiqbol”,2003.
3. Sobirovna, T. Z. (2023). Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi shakllari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 34(2), 33-34.
4. Xudoyqulov X.J. Tarbiyaviy ishlar metodikasi . T. TTYMI 2007 yil



ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В STEAM ТЕХНОЛОГИИ

Муталова Дилноза Абдурашидовна

Преподаватель ЧГПУ факультет «Дошкольное образование»

Аннотация: статьи отмечают, что использование STEAM-технологий в дошкольном образовании способствует развитию у детей технических и инженерных навыков, которые могут быть полезными в будущем.

Ключевые слова: творческий подход, Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics, образование.

Annotation: The articles note that the use of STEAM technologies in preschool education contributes to the development of technical and engineering skills in children that may be useful in the future.

Keywords: creative approach, Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics, education.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) - это подход к образованию, который объединяет различные дисциплины и научные предметы для развития у детей навыков критического мышления, проблемного решения и творческого подхода. В последние годы STEAM-образование стало все более популярным в школьной программе, однако его применение в дошкольном образовании все еще остается относительно новой исследуемой областью.

Целью данной научной статьи является изучение эффективности использования STEAM-технологий в процессе обучения детей дошкольного возраста. Мы провели экспериментальное исследование, в котором задействовали группу дошкольников и разработали специальную программу обучения на основе STEAM-подхода.

В ходе эксперимента было выявлено, что использование STEAM-технологий значительно способствует развитию у детей таких навыков как логическое мышление, творческий подход к решению проблем, коммуникативные навыки и умение работать в команде. Дети проявляли больший интерес к учебным материалам, были активно вовлечены в процесс обучения и демонстрировали высокую мотивацию для достижения результатов.



Также было отмечано, что использование STEAM-технологий в дошкольном образовании способствует развитию у детей технических и инженерных навыков, которые могут быть полезными в будущем. Этот подход помогает детям осваивать новые технологии и учиться применять свои знания на практике.

В последние годы STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) подход к образованию стал все более популярным. Он объединяет научные, технические, инженерные, художественные и математические дисциплины и акцентирует внимание на развитии ключевых навыков учащихся. Изначально такой подход был распространен в средней и старшей школе, однако сейчас все больше дошкольных учреждений начинают внедрять STEAM в свои программы обучения.

Обучение детей дошкольного возраста в STEAM технологии имеет несколько преимуществ. Во-первых, оно помогает развить у детей интерес к науке и технике с самого раннего возраста. Маленькие дети естественно любопытны и жаждут новых знаний. STEAM подход позволяет им осваивать эти дисциплины через игру и экспериментирование.

Во-вторых, обучение в STEAM формате помогает развить у детей целый ряд ключевых навыков. Например, они учатся работать в команде, решать проблемы, развивать творческое мышление и логическое мышление. Они также развиваются навыки обобщения и анализа информации, что помогает им в будущем успешно справляться с учебными задачами.

В-третьих, STEAM технологии позволяют детям развивать свои навыки визуального искусства и креативности. Они могут экспериментировать с цветами, формами и материалами, создавая уникальные произведения искусства. Это помогает им выразить свои эмоции и фантазии.

Конечно, обучение детей дошкольного возраста в STEAM технологии требует от педагогов соответствующей подготовки. Они должны быть готовы к созданию стимулирующей обучающей среды, которая будет способствовать активному участию детей в процессе обучения. Педагоги также должны быть готовы к постоянной адаптации программы обучения под потребности каждого ребенка.

Обучение детей дошкольного возраста в STEAM технологии имеет огромный потенциал для развития маленьких учеников. Оно позволяет им получить не только знания, но и навыки, которые пригодятся им в будущем. Этот подход к образованию помогает детям стать более уверенными и



самостоятельными, а также развивает их креативное мышление и способность решать проблемы.

В заключении статьи авторы подчеркивают необходимость дальнейших исследований в этой области и разработку более подробных программ обучения на основе STEAM-подхода для дошкольников. Они также отмечают, что использование STEAM-технологий должно быть интегрировано в общую систему образования, чтобы максимально раскрыть потенциал каждого ребенка и подготовить его к будущим вызовам.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Абушкин, Дмитрий Борисович. Педагогический STEM-парк МГПУ / Д.Б. Абушкин // Информатика и образование. ИНФО. - 2017. - № 10. - С. 8-10
2. Запорожец А.В. и Т.А. Маркова. Основы дошкольной педагогики. М., 1980. 48с.
3. Григорьев, Сергей Георгиевич. STEM-технологии в подготовке магистров педагогического направления / С.Г. Григорьев, А.Р. Садыкова, М.В. Курносенко // - 2018. - № 3 (45) 2018. - С. 8-13.
4. Курносенко, Михаил Валерьевич. Электронные технологические ресурсы и STEM-образование / М.В. Курносенко, С.Г. Григорьев // Информатизация непрерывного образования - 2018. - М., 2018. - Т. 1. - С. 466-477.
5. Садыкова, Альбина Рифовна. Методический опыт внедрения stem-технологий В процесс подготовки бакалавров педагогического направления / А.Р. Садыкова, М.А. Григорьева, Н.Д. Тамошина // Информатика и образование. ИНФО. - 2018. - № 5. - С. 41-43.



УУК-631.526+631.527+631.529+631.53.011

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ИҚЛИМ ШАРОИТИДА ЎРГАНИЛГАН ҒҮЗАНИНГ АҚШ ВА МЕКСИКА НАВ НАМУНАЛАРИ АСОСИДА ОЛИНГАН СЕЛЕКЦИОН ТИЗМАЛАРИНИ ЎРГАНИШ

қ.х.ф.д., к.и.х. **У.Е.Айтжанов.**, кичик илмий ходим **А.Б.Жалғасбаев**

Қорақалпогистон дәхқончилик илмий-тадқиқот институты

Анотация. Қорақалпогистон тупроқ иқлим шаройитида ғўзанинг селекцион жараёнидаги АҚШ ва Мексика нав намуналари иштирокида олингандурагай комбинациялар, тизмалар ва янги навлардаги асосий қиматли белгилари бўйишиа ўзининг ўстунлигини намоян этди.

Калим сўзлар: гўза, маҳсулдорлик, тола сифати, микронейр, оила, тезпишарлик, дурагайлаш, чатиштириш, селекцион схема, селекцион питомник, кузатув, тола чиқими, якка танлов.

Ўзбекистон пахтачилик соҳасининг ривожланиши жиҳатидан Марказий Осиёда анча юқори ўринлардан бирида туради. Сўнгги йилларда ўрта толали гўза навларни яратиш ва ишлаб чиқаришда кенг миқёси жорий этиш вазифаси кундан-кунга долзарб бўлиб келмоқда. Бунда ўрта толали навларни тола ҳосилдорлигини ошириш масаласи энг асосийси ҳисобланади. Оддий дурагайлаш услуби кўп йиллардан буён селекционер олимлар томонидан кенг қўлланилиб келинмоқда. Лекин бу ишларнинг аксарияти ўрта толали навлар яратишга кўпроқ йўналтирилган.

Дехқончилик ва технологияларни узлуксиз ривожланиши қишлоқ хўжалик экинларини янги навларига бўлган талабларини оширмоқда. Масалан, янги нав юқори ҳосилдорликка, яхши тола сифатига ва тезпишарликка эга бўлиши билан бир қаторда механизациядан ишлов беришга ва ҳосилни йиғишириб олишга кенг фойдаланишга мос минерал ўғитларга талабчан бўлиши, атроф-муҳитнинг ноқулай омилларига чидамли бўлиши ва қўпгина бошқа хусусиятлари билан ажralиб туриши учун АҚШ ва Мексика нав намуналари иштирокида олинганд интенсив, тури оптималь конструкцияга эга ўрта толали гўза навини яратиш лозим.

Б.К.Мадаратов [1] ва бошқаларнинг тадқиқотлар натижасида олинганд маълуматлар шуни кўрсатадики, бир марта суғориш ва сизот сувлари яқин (1,5-2,0м) жойлашган жойларда сугормасдан навнинг юқори тола чиқими ва сифат кўрсаткичларини сақлаб қолиш имкониятини яратиш мумкин бўлади.



Х.Сайдалиев ва М.Холикова [3] ларнинг фикрича, маданий-лаштирилган турларнинг барча ёввойи ва ярим ёввойи шакллари одатда ташқи муҳитга тез мослашувчан, қурғоқчиликка чидамли, қисқа кун талаб қилувчи кўп йиллик бутасимон ўсимликлардир. Умуман олганда, коллекцияда кўп йиллик ғўза намуналари анчагина. Лекин жаҳон миқёсида 98-99 фоиз бир йиллик ғўза намуналари экилади. Фақатгина Бразилия ва Перуда иқлим шароитидан келиб чиқкан ҳолда кўп йиллик ғўза экилади. Республикамизнинг турли тупроқ-иклим шароитларига мос навлар яратишда ўзида шўрланишга, сув танқислигига, гармселга, касаллик ва зааркундалар таъсирига чидамлилик, ҳосилдорлик, тола сифати каби белгиларни сақлаган намуналардан кенг фойдаланиш бундай муаммоларнинг ечимида катта аҳамиятга эга.

Ўзбекистон пахтачилик соҳасининг ривожланиши жиҳатидан Марказий Осиёда анча юқори ўринлардан бирида туради. Сўнгги йилларда яратилаётган ғўза навлари ушбу фикрнинг исботидир. Яратилаётган ушбу навлар ўзининг келиб чиқиши, асосий хўжалик белгилари ва биологик кўрсаткичларининг ижобийлиги билан ажралиб туради. Бундай навларни яратишда нафақат республикамиз олимлари, балки чет эл олимларининг ҳам эътироф этишларича, ғўза генофондидан, яъни унда мавжуд бўлган ёввойи, рудераль ва нав намуналаридан самарали ҳамда тўғри фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга [3].

Навларни баҳолашда асосий белгилардан бири-бу тола сифатидир. Ушбу белги жуда мураккаб ирсийланиш табиатига эга бўлиб, у жуда кўп омиллар таъсирида ўзгаради. Ғўзанинг ёввойи ва ярим ёввойи кенжа турларини Американинг маданий навлари билан чатиширилганда ҳосил бўлган дурагайларда бўғиндан-бўғинга ўтиш ҳамда якка ва ялпи танланиш туфайли тола сифатининг ошганлиги кузатилган. Айниқса, бу кўрсаткич Paymaster-266 x punctatum дурагайининг 11-бўғинида юқори бўлиб, қимматли ва ноёб хусусиятга эга [2].

Й.Ф.Узаков ва Г.Р.Ким [4]ларнинг илмий ишларининг асосий хулосаси шундан иборатки, ирсий табиатига кўра юқори тола сифатига эга бўлган (Мексика) навлар билан ишлаш натижасида навлар билан дурагайлаганда бу хусусиятларни дурагай наслга ўтказа олади. Улар 6990-8600 гача бўлган юқори метрик рақамни кўрсатдилар, толаси 3,3-3,5 г, бу навлардан бизнинг ишимизда ушбу хусусият учун юқори кўрсаткичларга эга бўлган намуналар ишлатилди. Айнан улар биз ўргангандан полимер линияларида иштирок этди.



Илмий тадқиқот 2022-йилда Қорақалпоғистон дәхқончилик илмий-тадқиқот институтининг «Ғұза селекцияси ва уруғчилеги» лабораториясида олиб борилди.

Институт Чимбай шаҳридан 4 км шимолий-шарқда, $43^{\circ}44^{\circ}$ шимолий кенглиқда Қорақалпоғистон Республикасининг Чимбай тумани ҳудудида жойлашган. Об-ҳаво шароити кундуз кунлари иссиқ ва кечалари салқын бўлади. Ёзда асосан булатсиз кунлар бўлиб қуёш нурининг тик тушиши натижасида ҳарорат юқори ва ёғингарчилик кам бўлади. Кўп йиллик маълумотларга қараганда, ушбу ҳудудда йиллик ёғин миқдори ўртача 99,0 мм ни ташкил этади. Охирги баҳорги совук апрел ойида, дастлабки кузги совук эса сентябр ойининг охирги кунларида кузатилади.

Биринчи йил селекцион кўчатзорида 163 та делянкадан 45 та селекцион тизмалари экиб ўрганилди. Улардан 41 селекцион тизмалари делянкаларни фенологик кузатувлар орқали органолептик таҳлиллар билан қайд этилди. Ушбу тизмалардан дала ва лабораторияда таҳлил қилиш ишлари учун синов намуналарида 150 дона миқдорида якка танловлар териб олинди (1-жадвал). Ушбу ўрганилган питомниңда белгиланган тизмалардан андоза нисбатан №15 (Амударьё-258 x С-4727), №25 (Чимбай-5018 x С-4727) ва №37 ((011843 x С-4727) x Чимбай-5018) улар -3 дан 6 кунгача андозага нисбатан эртапишар ҳолатда бўлди. Битта қўсактаги пахта вазни бўйича 1-жадвал маълумотларини таҳлил қилишда, белгиланган танлов тизмалари асосан стандарт С-4727 навига нисбатан бирмунча яхши эканлиги аниқланди. №15 (Амударьё-258 x С-4727) №25 (Чимбай-5018 x С-4727), №57 (Чимбай-5018 x 011560) x С-4727) каби алоҳида тизмалар нисбатан катта +0,2 дан +0,6 гр гача бўлган ва бир-бирига стандартга нисбатан яқин келди.

Шунингдек, пахта хомашёсининг совукдан олдинги ҳосили бўйича №15-сонли (011656 x С-4727), №25 (Чимбай-5018 x С-4727) қаторлар стандарт навига нисбатан анча юқори кўрсаткичларига эришилди ва пахта хомашёсининг совукдан олдинги ҳосили меъёрга нисбатан 5,6 фоиздан 9,8 фоизга юқори бўлди. Собук тучгандан сўнги териб олинган пахта хомашёсининг ҳосилдорлиги бўйича юқоридаги дурагайлар стандартга нисбатан 6,4 фоиздан 8,8 фоизгача нисбатан юқори ҳосил берди. 1-жадвалга қаранг. Бундан ташқари, жадвал маълумотларини таҳлил қилишда тола чиқими бўйича юқори кўрсаткичларга эришилган тизмалардан №6 (011843 x Амударьё-258), № 37 ((011843 x С-4727) x Дустлик- 2). Улар тола чиқими бўйича 37,4 % дан 37,9 % гача юқори кўрсаткичларга эга бўлдилар ва 0,4% дан



+0,5% гача стандартга нисбатан юқори бўлди. Ушбу кўчатзордаги толанинг узунлигига бўйича, 7-сонли, 25-сонли, 37-сонли тизмалар сезиларли афзалликларга эга бўлди. Улар С-4727 стандартга нисбатан тола узунлиги +0,4 мм дан 1,0 мм гача бўлди.

Хулоса қилиб атганда, биринчи йил селекцион кўчатзорида қимматли хўжалик белгилар мажмуасига кўра №15 (011656 x С-4727), №25 (Чимбой-5018 x С-4727) устун навлар бўлди. №37 ((011843 x С-4727) x Дўстлик-2). С-4727 стандарти билан таққослагандан, улар асосий қимматли хўжалик белгилари бўйича фойдалери бўлиб чиқди.

Шунингдек, лаборатория таҳлиллар натижаларига кўра, тола узунлигини таҳлил қилгандан, узун толали линиялардан №18, №43 ва №59 селекцион тизмалар стандартдан 0,4 мм дан 0,8 мм гача юқори кўрсаткичга эришилди. Улардан 16, 18, 27, 45, 47, 54 ва 59 қаторда экилган тизмалар бирмунча тола узунлиги яхши бўлди.

1-жадвал

Селекцион I йил кўчатзорининг қимматли хўжалик белгилари 2022 йил

№	Дурагай комбинации	Вегетация даври, кун		1 та кусак пахта вазни, грамм.		Пахта ҳосили, ц/га.		Тола чикими, %		Тола узунлиги, мм.	
		кун.	фарк	гр.	Фарк	ц/га	фарк	ц/га	фарк		
1	С-4727	118		6,5		24,1		28,0		37,4	
6	011843 x Амударья-258	114	-4	6,4	-0,1	26,0	107,8	30,6	109,2	37,9	+0,5
7	Амударья-258 x Арап-2	118	±0	6,6	0,1	28,7	119,1	32,8	117,1	37,0	-0,4
9	С-4728 x Амударья-258	119	+1	6,6	0,1	20,6	85,4	30,5	108,9	37,4	±0
11	С-4727	116		6,7		26,4		28,1		37,0	
15	011656 x С-4727	112	-4	6,9	+0,2	29,0	109,8	29,9	106,4	38,0	+1,0
19	KK-3523 x Арап-2	118	-2	6,8	0,1	28,6	100,7	29,8	102,4	37,4	+0,4
21	С-4727	116	±0	7,1	+0,4	26,2	100,0	31,4	111,7	36,5	-0,5
25	Чимбой-5018 x С-4727	110	-6	7,0	0,3	28,0	105,6	30,6	108,8	37,8	+1,0
27	-//-	118	+2,0	6,8	0,1	28,2	106,8	30,1	107,1	37,4	+0,4
										32,8	-0,2



28	-//-	120	+4,0	6,9	+0,2	30,0	113,6	30,6	108,8	36,9	-0,2	32,9	-0,1
31	C-4727	120		6,6		24,7		27,4		36,9	±0	33,0	
36	(C-4727 x 011943) x Дўстлик-2	120	±0	6,9	+0,3	26,0	105,2	27,8	101,4	37,8	-0,2	33,6	-0,2
37	(011843 x C-4727) x Дўстлик-2	117	-3,0	7,0	+0,4	27,4	92,5	29,6	98,6	37,4	+0,5	33,8	+0,8
39	(Ч-5018 x 011656) x Дўстлик-2	121	+1,0	6,6	±0	25,6	103,6	28,9	105,4	37,2	+0,3	33,0	±0
40	(011656 x Ч-5018) x C-4727	118	-3,0	6,6	±0	22,9	92,7	29,4	107,2	36,9	±0	34,0	+1,0
41	C-4727	117		7,0		22,6		29,2		37,4		32,9	
42	(Дўстлик-2 x 07291) x Арап-2	116	-1,0	7,0	±0	24,7	109,2	28,6	97,9	37,8	-0,4	33,0	+0,1
44	(07291 x Дўстлик-2) x C-4727	118	+1,0	6,7	-0,3	20,1	88,9	29,6	101,3	37,6	+0,2	33,1	+0,2

АДАБИЁТЛАР

1. Мадаратов Б.К., Алихўжаева С.С., Кўчқаров О.Э., Усманов С.А., Абрарова.Ф.А, Сув танқислигига яратилган тизмаларни шўрланган тупроқ шароитида ўрганиш. //Фўза, беда селекцияси ва уруғчилиги. Илмий ишлар тўплами. «Фан» –Тошкент -2009. –Б.269.

2. Сайдалиев X. Характер наследования технологических свойств волокна межвидовых гибридов хлопчатника с участием дикого полиплоидного вида G. *tomtentosum* Nutt. ex Seem. «Фермер хўжаликларида пахтачилик ва ғаллачиликни ривожлантиришнинг илмий асослари» халқаро илмий-амалий конференция. -Тошкент-2006, №5.-Б.493-495.

3. Сайдалиев X., Халикова М. ЎзFCСУИТИ қошидаги фўза коллекциясининг селекцион-генетик изланишларда тутган ўрни. //Фўза, беда селекцияси ва уруғчилиги. Илмий ишлар тўплами. «Фан» –Тошкент,2009. –Б.30-34.

4. Узаков Й.Ф., Ким Р.Г. Селекция карликовых сортов хлопчатника // Генетика и селекция хлопчатника Тр. ВНИИССХ им. Г.С. Зайцева. Вып.19. 1981. 134-141 с.



ИЗУЧЕНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННЫЙ

Акбарова Дилором Ахатовна

*Преподаватель Ташкентского университета прикладных наук
кафедра русского языка*

Аннотация: В статье рассматривается, связанного с изучением русского языка как иностранного славяноязычной аудиторией. Слова, фонетически близкие в родственных языках, представляют особую трудность для учащихся. Чтобы лучше их усвоить, необходимо установить причины такого сходства, определить характер семантических различий внутри отдельных групп слов, описать действие общих семантических законов. Использование ряда методических приемов позволяет оптимизировать учебный процесс и способствует творческой активности учащихся. Цель исследования - повысить интерес к изучению разговорного русского языка.

Ключевые слова: общение, методология, паронимы, интерференция, семантические закономерности, заимствования.

В современном мире значительно возросла роль межкультурной коммуникации. Это имеет большое значение и в практике преподавания русского языка как иностранного. «Обучение кросс-культурной коммуникации как процессу изучения друг друга и узнавания друг о друге направлено на развитие способностей функционирования в кросс-культурном контексте» (Роляк, 2013). А изучение иной культуры позволяет добиться значительного прогресса в межъязыковом диалоге. Учет культурных традиций и мировоззрения, а также нравственных ценностей в образовании помогает

оптимизировать процесс обучения иностранному языку. И на это обращают внимание современные исследователи (Чаканова, Карпыбаева, Бейсембаева, Ошакбаева, 2014). Преподавание русского языка в польской аудитории связано с особыми трудностями, обусловленными генетическим родством двух славянских языков. Сходство языков на лексическом уровне дает представление о простоте понимания значения отдельных русских слов, фонетическая форма которых близка к польским словам. Поэтому преподаватель русского языка как иностранного сталкивается со специфическими проблемами. Их решение требует использования определенных лингводидактических приемов. Основным методом обучения



является не только сравнительный метод, но и метод компонентного анализа. Благодаря этому методу отчетливо выявляются сходства и различия в семантике родственных лексем славянского происхождения. При обучении славяноязычных студентов лексическому составу русского языка учителю приходится решать ряд методических задач. Они включают в себя установление причин фонетического сходства в двух родственных языках, понимание необходимости обращения к специальным словарям и другим справочникам при изучении значения таких слов, выяснение факторов, вызвавших семантические расхождения внутри отдельных групп слов, поиск пути преодоления трудностей в обучении близкородственному языку. Еще одним важным аспектом является лексический фон слов общего происхождения. Это связано с дополнительными значениями, развившимися в слове и определяемыми социальным и культурным фоном, что помогает наиболее полно представить концепт. Такой подход определяет актуальность лингвокультурологического метода исследования семантики слова, способствующего полному пониманию значения слов иностранным учащимися.

Учет специфики языковых единиц является одной из важнейших задач, стоящих перед учителем русского языка как иностранного. Целью обучения русской лексике должно быть формирование значения слова в сознании иностранного учащегося настолько полно, насколько оно представлено в сознании носителя русского языка. Такой подход должен повысить интерес к изучению русского языка. Сопоставительный аспект и ориентация на родной язык учащихся крайне необходимы, так как способствуют удобному и адекватному лингводидактическому описанию лексических единиц, выделенных в учебных целях. Сопоставительная характеристика лексики, установление возможных соответствий лексических единиц в близкородственных языках является важной частью русской речевой практики в польской аудитории. Используемый в работе статистический метод помогает представить степень близости этих языков. на лексическом уровне, а также для

определения результатов работы некоторых универсальных семантических законов. В результате статистического подсчета методом сплошной выборки в «Большом польско-русском словаре» (1980) выявлено 520 сходных по звучанию и различных по значению лексических единиц в русском и польском языках. Такие слова становятся исследовательским



